Yuk ko'taruvchi devorlar yuqorida joylashgan konstruksiyalar, jihozlar, mebellar va shu kabilardan tushadigan og'irlikni ko'tarib turadi. Ham ichki ham tashqi devorlar ko'taruvchi bo'lishi mumkin. Binolarni kichik-kichik xonalarga ajratuvchi to'siq (parda) devorlar yuk ko'tarmaydigan hisoblanadi. Bunday devorlar poydevorlarga yoki poydevor to'siniga qo'yilgan, o'zini ko'tarib turuvchi va ustunlarga ilingan osma devorlar tarzida ham bo'lishi mumkin.

Ilingan devorlar har bir qavat balandligida gorizontall joylashgan elementlarga tayangan bo'ladi.

Alohida tayanchlarning (ko'taruvchi vertikal elementlar – ustun, tirgovich, sinch) vazifasi qavatlararo yopmalardan tushadigan yuklarni poydevorga uzatishdan iborat.

Qavatlararo yopmalar binoning ichki bo'shlig'ini qavatlararo bo'ladi va ustunlarga maxsus mahkallangan rigel ki progon deb ataluvchi to'sinlar ustiga yotqiziladi, ayrim hollarda esa to'g'ridan-to'g'ri ustunga mahkamlanadi.


Qavatlararo yopmalar doimiy va vaqtinchalik yuklarni ko'tarish bilan birga devorlarni o'zaro bog'laydi va ularning ustivorligini ta'minlaydi va butun binoning fazoviy birligini oshiradi. Qavatlararo yopmalarbinoda joylashgan o'rniga qarab qavatlararo yopmalar (binolarni qavatlararo ajratadi), yerto'la usti qavatlararo yopmasi (birinchi qavatni yerto'ladan ajratib turadi) va chordoq qavatlararo yopmasiga (tapa qavatni chordoqdan ajratadi) bo'linadi.

Tomlar bino va uning konstruksiyalarini atmosfera yog'in-sochin ta'siridan saqlovchi konstruktiv elementdir. Ular tom yopish uchun ishlatilgan material va uni ko'tarib turuvchi konstruksiyalardan iborat bo'ladi. Tomlar konstruktiv tuzilish jihatidan chordoqli va chordoqsiz tomlarga bo'linadi.

CHordiq binoning tepa qavati bilan tom yopmasi orasida joylashgan bo'shliq qismidan iborat. CHordiqsiz tomda binoning tepa qavati yopmasi bilan tomi birlashgan bo'ladi. Tomlar nishabli va tekis bo'lishi mumkin. Tekis tomlardan dam olish maydoni sifatida va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Zinalar (qavatlararo) bino qavatlarini o'zaro bog'laydi va odamlarni binodan evakuatsiya qilish yo'li vazifasini ham o'taydi. Zinalar joylashgan maydonga zinaxona deb ataladi. Zinalar ikki konstruktiv element-zinaning ikki maydonchasi va ular orasidagi qiya joylashgan marshdan iborat bo'ladi. Zina marshida xarakat havfsizligini ta'minlash uchun marsh chekkasiga zina panjarasi o'rnatiladi.

Derazalar xonalarga yorug'lik, quyosh nuri tushishi hamda xonalarni shamollatish uchun xizmat qiladi. Ular deraza o'rni, deraza kesakisi va deraza tavaqalaridan iborat bo'ladi.



2-rasm. Yuk ko'taruvchi g'ishtli devorlardan iborat binolarning asosiy konstruktiv elementlari: 1 — poydevor tagi; 2 — yerto'la qavatlararo yopmasi; 3 — poydevorlar; 4 — ship; 5 — pastki qavatlararo yopma; 6 — podpol'e; 7 — pardadevor; 8 — xususiy massa, odamlar va asbob-uskunalar dan tushayotgan yuk; 9 — qavatlararo yopma; 10 — bo'ylama ichki devor; 11 — devor; 12 — deraza proemi; 13 — bo'g'ot (karniz); 14 — chordoq qavatlararo yopmasi; 15 — chordoq; 16 — stropila to'sini; 17 — tom qoplamasi; 18 — dudburon quvur; 19 — zont; 20 — konyok progoni; 21 — podkos; 22 — ustuncha

(stoyka); 23 — konek; 24 — tomdarchasi; 25 — qor; 26 — bo'g'ot; 27 — mauerlat; 18 — deraza perepleti; 29 — eshik; 30 — krilytsa; 31 — poypesh (tsokol); 32 — yerto'la; 33 — grunt namligi.

Eshiklar xonalarni bir-biri bilan bog'laydi, shuningdek binoga kirish va undan chiqish yo'li hisoblanadi. Ular devordagi yoki parda devordagi eshik o'rni, eshik qutisi (kesakisi) va tavaqasidan iborat bo'ladi. Turar-joy binolarida bulardan tashqari boshqa konstruktiv elementlar, ya'ni **daxliz**, **ayvon**, **eshik usti soyaboni** va boshqalar ham bo'lishi mumkin.

Ekspluatatsiya va sanitariya-gigiena shartlarini ta'minlash uchun binolar, **sanitariya-texnika** va **injenerlik qurilmalari** bilan jihozlanadi. Bularga isitish qurilmalari, issiq va sovuq suv ta'minoti, ventilyatsiya, kanalizatsiya, ahlatni chiqarish, gazlashtirish, energiya bilan ta'minlash, telefonlashtirish va boshqalar kiradi.

Energiya tejamkor binolarni konstruksiyalari fanining maqsad va vazifalari

Er yuzasi paydo bo'lgandan boshlab, inson quyosh nurlaridan foydalangan. Arxeologik ma'lumotlardan ma'lumki, yashash uchun insonlar tinch, sovuq shamollardan asraydigan, quyosh nuri tushadigan joylarni tanlashgan. Quyosh haqida afsonalar to'qilgan, uni xudolashtirishgan. Qadimgi Misrda Ra – quyosh xudosi hisoblangan. Birinchi mashhur geliosistema deb bizning eramizgacha XV asrga mansub Amenxotepa III haykalini atash mumkin. Haykal ichki tomonidagi havo va suv kameralari quyosh nuri ta'sirida berkitilgan musiqali asbobni harakatga keltirgan. Qadimgi Gretsiyada Geliosga sig'inishgan. Bu xudo ismi hozirgi kunda quyosh energetikasi bilan bog'liq ko'pgina atamalarga asos qilib olingan. Qadimgi slavyanlarda Dojdьbog – quyosh, issiqlik va yorug'lik manbai ilohiylashtirilgan. Qadimda shunday sirli inshootlar bo'lganki, hozirgi kunda ulardan geliokollektorlar sifatida foydalanilgan deb taxmin qilishimiz mumkin. Markaziy Osiyo xususan O'zbekiston qurilish me'morchiligi ibtidosi bizning eramizgacha III asrga borib taqaladi. IX-X asrlarda qurilgan va bizning davrgacha saqlanib qolgan ko'pgina binolar va inshootlar haqli ravishda qurilish sa'nati cho'qqisi bo'lib hisoblanadi, XVI-XVII asrda Samarqand, Buxoro, Xorazm, Toshkent va boshqa shaharlarda bunyod etilgan bino va inshootlar yuksak me'moriy-qurilish maktabidan dalolat beradi, bu bino va inshootlarda shakl va fazoviy tarkib uyg'unligi, tabiiy-iqlim va shaxarso'zlik sharoitlari hisobga olingan ichki va tashqi muhit yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining “Energiyadan ratsional foydalanish haqida”gi qonuni ijrosi energetik resurslarni asrash va ulardan ratsional foydalanish, atrof muhitni himoya qilish samaradorligini oshirish, inson salomatligini asrash hamda alternativ quvvat manbalaridan keng foydalanish masalalarini belgilash imkonini beradi. MCHJ “Qurilish- Gemoservis” maxsus yirik korxonaning tashkil qilinishi quyosh sistemalarini O'zbekiston hududida qo'llashning keng dasturini ishlab chiqish imkonini berdi.

Ma'lumki, yoqilg'ini energiyaga aylantirishda, ko'p yoki kam darajada atmosferaga zararli chiqindilar chiqib, atrof-muhitni zararlaydi. Yerlardan intensiv foydalanish, xom-ashyo qazib olish, qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yerlar sonini qisqartirish, inson yashashi uchun tabiiy muhitini kamaytiradi. Ma'lumki, qazib olish, ishlab chiqarish, tashish, saqlash hamda energetika resurslarini iste'mol qilishda boshlang'ich darajadagi energiyaning 90% yo'qotiladi. Bu, birinchi navbatda iste'molchiga yetib borgunga qadar xom-ashyoni ko'pgina texnologik jarayonlardan o'tishi hamda an'anaviy energiya ta'minoti qimmatlashishiga olib keladi. SHuning uchun arxitektorlar va quruvchilar XXI asr me'moriy konstruksiyalarini rivojlantirish kontseptsiyalarini ishlab chiqishda, shahar tarkibi va alohida binolarni ishchi loyihalarda tabiiy resurslarni asrash va iloji boricha yangi hosil bo'lgan energiya manbaalari va birinchi navbatda quyosh energiyasidan tejamkor foydalanishni hisobga oluvchi loyihaviy yechimlarni kengroq qo'llashlari talab qilinadi.

Yangi hosil bo'ladigan manbaalarga quyosh energiyasi, shamol energiyasi, (daryolar) gidroenergiya, oqimlar, to'lqinlar, yerning chuqur qatlamlari energiyasi. Mamlakatning issiqlik balansida energiyaning yangi hosil bo'lmaydigan manbaalari 90% ni, shundan 30% i neft, 40% i gaz, toshko'mir 20%ni tashkil qiladi. Butun

organik yoqilg'i (neft, gaz, toshko'mir va h.k.) bu quyosh energiyasining turli bosqichlaridan o'tib, qayta shakllanib million yillardan keyin bizgacha yetib kelgan ko'rinishi bo'lib, ularning tugashi va qimmatlashishi xavfi bor.

Quyosh yerga yuborayotgan nur oqimining quvvati haqiqatdan ulkandir, yerga tushadigan 100% quvvatning (o'rta hisobda 340 Vt 1kv.m.ga to'g'ri keladi) 47% i yer yuziga tushadi (160 VT), quvvatning qolgan qismi dunyo fazosiga tarqaladi va planeta issiqlik balansini ta'minlaydi.

Er yuzasining 1 kv.m.ga to'g'ri keladigan quyosh energiyasi 160 Vt/m²ni tashkil qiladi, lekin turli geografik kengliklar uchun bu ko'rsatkichlar turlichadir, namlik, bulutli havo, atmosferaning changlanganligi, yer sathining balandligi, yil fasllari, sutkalik harorat va boshqalarga bog'liq.

Hozirgi dolzarb masala yer yuziga tushadigan quyosh energiyasining qancha qismi inson ehtiyojlari uchun sarflanishidir. Inson tomonidan foydalaniladigan quyosh energiyasi yo'q bo'lmaydi, balki shakli o'zgaradi (ma'lum yuza bilan to'qnashishgan boshqa tana orqali atrof muhitga chiqib ketadi), konvektsiya orqali (bu yuza atrofida havo aylanishi hisobiga) va nurlanish orqali (har bir qizigan yuza issiqlik tarqatadi). SHu uchta holning har biri yuza harorati hamda yuza va atrof muhit haroratlari farqiga bog'liq, bunda iqlimni o'zgarishlari hisobga olinadi.

Energiyaning an'anaviy va noan'anaviy manbaalari. Ilm-texnika rivojlanishinig mavjud darajasida energiya ist'emol qilinishi organik yoqilg'i (ko'mir, neft, gaz)dagi foydalanish hisobiga to'ldirilishi mumkin. Ko'pgina tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020 yilga organik yoqilg'i dunyo bo'yicha energetikaga bo'lgan talabni qismangina qondiradi. Energiyaga bo'lgan talabning qolgan qismi noan'anaviy va yangi hosil bo'luvchi boshqa energiya manbaalari hisobiga qondiriladi. Yangi hosil bo'luvchi boshqa energiya manbaalari – bu doimiy mavjud yoki atrof-muhitda davriy ravishda paydo bo'luvchi energiya oqimlaridir. Yangi hosil bo'luvchi quvvat insonni yo'naltirilgan faoliyati mahsuli emasligi- uning farqli jihatidir.

Yangi hosil bo'lmaydigan energiya manbaalari – bu modda va materiallarning tabiiy zahirasi bo'lib, energiya ishlab chiqarish uchun inson tomonidan ishlatilishi mumkin. Bunday quvvat manbaalariga yadro yoqilg'isi, ko'mir, neft, gaz misol bo'la oladi. Yangi hosil bo'ladigan manbaalardan farqli ravishda yangi hosil bo'lmaydigan quvvat manbaalari tabiatda bir-biriga bog'liq holatda joylashadi va inson aralashuvi natijasida ajratib olinadi.

BMT bosh assambeyasi №33/148 son rezolyutsiyasiga muvofiq noan'anaviy va yangi hosil bo'luvchi energiya manbaalariga quyidagilar kiradi: quyosh, shamol, geotermal, dengiz to'lqinlari, okean va dengizlar sohillaridagi to'lqinlardan hosil bo'luvchi energiya biomassa, yog'och, yog'och-ko'mir, torf, slanetslar, bitumsimon qumliklar, katta va kichik suv oqimlari gidroenergiyasi.

To'suvchi konstruktsiyalarning issiqlikdan himoya qatlamini oshirish

Oxirgi o'n yillikda qurilish industriyasining rivojlanishini asosiy yo'nalishlaridan biri energiya samaradorligini oshirish bo'lib hisoblanadi. Xorijda foydalaniladigan binolarning issiqlikdan himoyasini yaxshilash bo'yicha ishlanmalar, ishlab chiqarishga 70-yillar energetik krizisga turtki bo'ldi, 1976-1980 yillaridan boshlab ko'pgina xorijiy mamlakatlarda issiqlikdan himoya qiluvchi tashqi to'suvchi konstruktsiyalarning me'yoriy kattaligi 2-3 barobar kattalashdi. Hozirgi kunda qo'llanilayotgan issiqlikdan

himoya materiallariga qo'yiladigan talablar tinimsiz oshmoqda, issiqlik o'tkazuvchanlik me'yorlari ayrim qurilish konstruktsiyalari, shuningdek barcha bino va inshootlar uchun ham shiddatlashdi. Bino va inshootlarni issiqlik himoyasi bir qancha amaliy maqsadlarni ko'zda tutadi: qulaylik darajasini oshirish, issiqdan va tovushdan himoya, yoqilg'i resurslarini tejash va foydalanish sarf-harajatlarini qisqartirish. Energiya jihatdan tejamkor binolar sarasiga nafaqat konstruktsiyasi issiqdan himoyalangan binolar, balki shamollatish va issiqlik bilan ta'minlash sistemalari muhandislik yechimlari mavjud binolar ham kiradi. Energiya tejamkor binolar konstruktsiyasini rivojlantirish uchun turli binolardan foydalanish boy tajribasiga tayanish zarur. Binolarning energiyasamaradorligi ko'pgina omillar jamlanmasi bilan belgilanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ko'p qavatli turar joy binolaridan foydalanilganda devor va tirqishlardan 30%gacha issiqlik, deraza orqali esa- 18-30%, yerto'ladan- 5-10%, tomdan- 10-18%, shamollatish orqali-18% issiqlik yo'qotiladi. Issiqlik yo'qotilishini kamaytirish uchun energiya tejashga kompleks yondashish kerak. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, to'suvchi konstruktsiyalarning termik qarshiligini pasaytirish bino energiya samaradorligini ancha pasaytiradi. Faqatgina to'suvchi konstruktsiyani isitib, issiqlik yo'nalishini kamaytirishga erishib bo'lmaydi, chunki binoni atrof muhit bilan faol issiqlik almashish joylarida issiqlik ko'proq yo'qotiladi, bu joylar "sovuqlik ko'prik"lari deb ham ataladi. Bunday qismlar qo'shimcha orayopma plitalar yuk ko'taruvchi devorlar bilan ulangan joyda, to'suvchi konstruktsiyalar va derazalarda, shuningdek uch qatlamli isitkichli konstruktsiyalarda sifatsiz issiqlik himoyadan foydalanilganda hosil bo'ladi.

SHuning uchun zamonaviy isitish sistemalari bino konstruktsiyasi atrofida kompleks himoya issiqlik qobig'ini yaratishni ko'zda tutadi. Bunday qobiq tarkibida grunt bilan kontaktda bo'luvchi zamin konstruktsiyasini isitish qiya yoki yassi tomlar isitishi bilan uyg'unlikda, yuk ko'taruvchi konstruktsiyalarga musbat haroratni haydab beruvchi shamollatiladigan fasadlar o'rnatish kiradi. Bu tadbirlar majmuasi "sovuq ko'prik" hosil bo'lishini oldini oladi, to'siqni issiqlik qarshiligini oshiradi, konstruktsiyaning foydalanish xususiyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi kondensat bo'lishini oldini oladi. Yana bir jiddiy muammo derazalar orqali issiqlik yo'qotilishidir. Derazalar maydoni kichraytirib, bu masala osongina hal qilingandek tuyuladi, lekin bu holda xona qulayligi va yorug'lik mikroiklimi buziladi. Bu muammoni yechishning eng yaxshi yo'li 2 yoki 3 qatlamli past issiqlik o'tkazuvchan zamonaviy shishapaketlarni qo'llashdir.

Yuqorida aytib o'tilgan energiyani tejashning passiv jihatlaridan tashqari yuqori texnologiyalarni jalb qilingan eng yangi yechimlarni aytib o'tish o'rinli. Binoga issiqlik kelishini va taqsimlanishini ta'minlovchi isitish intellektual sistemalari ko'zda tutilmoqda, ya'ni zaruriy va yetarli issiqlik miqdori o'z-o'zidan ta'minlanadi. Lekin bunday yondashuv keng tarqalgan neytral isitish sistemasiga muhim va ayrim hollarda aniq o'zgartirishlarni kiritishni talab qiladi.

Butun jahonda hozirgi kunda energiya jihatdan tejamkor binolar qurilishi keng ko'lamda olib borilmoqda. Ayniqsa g'arbiy Yevropa va Skandinaviya mamlakatlari erishgan yutuqlar diqqatga sazovordir. Bu yerda qurilayotgan turar joy va tijorat

binolari issiqlik tejash yig'indi samaradorligi 50% ni tashkil qiladi. Bunday salmoqli iqtisod energiya tejash texnologiya xarakterlarini tez qoplash imkonini beradi. Xususan Daniyada, hozirgi kunda shunday binolar qurilmoqdaki, ulardan foydalanilganda 16 kVt/m² energiya sarflanadi, bu ko'rsatkich joriy energiya harajatlaridan 70% ga kam. ROCKWOOL tadqiqot markazi binosi energiyasamarador binolar qurilishiga kompleks yondoshuvning ajoyib misoli bo'lib xizmat qiladi. Bu loyiha "2000–yil idorasi" mukofotiga sazavor bo'ldi va dunyodagi eng energiyasamarador binolardan biri deb tan olindi. Yangi muxandislik yechimlarini qo'llash "sovuq ko'prik" hosil bo'lishi ehtimolini yo'qqa chiqaradi. Qo'llanilgan 3 qavatli alohida konstruktiviyali past issiqlik o'tkazuvchi derazalar yorug'lik va fazo taasurotini beradi. Hozirgi kunda atrof muhit resurslaridan foydalanish va energiyani ist'emol qilish darajasi bo'yicha dunyo amaliyotida bir nechta turdagi binolar qo'llaniladi:

1. Energetik jihatdan tejamkor bo'lgan quyosh radiatsiyasini kuchli yutishga mo'ljallangan, lekin olingan issiqlikni saqlash sistemalari o'rnatilmagan binolar;
2. Minimal energiya yo'qotadigan, issiqlikni maxsus yutish, taqsimlash va saqlash sistemalariga ega bo'lgan bino (quyoshli uy);
3. Energetik jihatdan samarador bino, optimal tanlangan xajmiy tarxiiy yechim, shakli, ko'rsatkichlari va kuchli issiqlik himoyali bu binoda issiqlikni yo'qotilishi minimum darajaga tushirilgan (ekobinolar).

Ma'lumki, quyoshli uy konstruktiviyalarining birinchi bosqichi bu binolarni optimal shakli, o'lchamlari, xajmiy-tarxiiy konstruktiv yechimi va yo'nalishini tanlashdir. Odatda, ixcham, kvadrat shakliga yaqin tarx tavsiya qilishadi, bunda tashqi devor perimetri minimal bo'ladi.

Ixchamlik ko'rsatkichi bo'lib, tashqi devor yuzasining devor ichki xajmiga nisbatiga teng koeffitsient xizmat qiladi. Tashqi devor yuzasini kichraytirish uchun tsilindrik, yarim sfera va boshqa noan'anaviy shakllardan foydalanish mumkin. Energiya iste'molini kamaytirish uchun bino to'suvchi elementlarini konstruktiviyalari ko'pgina me'yorlari qayta ko'rilmogda, uning issiqdan himoya xossalari nisbatan zamonaviy himoya materiallari, me'yorlarini qo'llash hamda infiltratsiyani yo'q qilish, deraza va eshik orqali shamollatish va boshqalarni qo'llab amalga oshirilmogda; shuningdek bino xonalarining energiyani iste'mol qilishi va foydalanish tartibiga ko'ra biki differentsiyalash orqali oshirish mumkin. Kam isitiladigan xonalarni (shkaflar, omborlar, santugunlar, garajlar va b.) shimoliy tomonga ko'ndalang qilib bufer elementlari sifatida joylashtirish tavsiya qilinadi. Binoni maydonini rejalash va ularni to'g'ri yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyosh nurlanishidan tejamkor foydalanish uchun turar joyning janubiy devori yoki tomi soat 9.00 dan 15.00 gacha havoning aynigan paytida ham quyosh nurlari bilan nurlanib turishi kerak, buning uchun bino fasadi janubga 10.....20 dan ko'p bo'lmagan burchakka og'ib yo'naltirilgan bo'lishi kerak, hamda bino fasadining janubiy qismi soya bo'lib qolishiga qarshi choralar ko'rigan bo'lishi kerak.

Hozirgi kunda butun jahonda gelioarxitektura shiddat bilan rivojlanmogda. Hamma biladiki, quyoshli kengliklardagi 2 qavatli uy o'zini-o'zi elektr energiyasi bilan

ta'minlay oladi, qishga ham zahira tayyorlab qo'ya oladi. Buning uchun tom yopma yuzasini quyoshli batareyalar bilan jihozlash kifoya.

Olimlarni esa bunday yondoshuv qoniqtirmaydi. Ular uchinchi avlod gelio qabul qilgichlarni yaratmoqdalar. Qachonki, birinchi avlod ixtirosini janubiy aholi endigina o'zlashtirishni boshlagan, ikkinchi avlod – lokatorli gelio qabul qilgichlar – tajriba – sinov ko'rinishida qo'llanila boshlandi.

Bugungi kunda quyosh energiyasidan foydalanishning tadqiqot va tajriba sinov ishlari uch yo'nalishda olib borilmoqda:

- past quvvatli (past haroratli) issiqlikni issiq suv bilan ta'minlash, fuqaro va qishloq xo'jalik bino va inshootlarini isitish uchun olish;
- o'rta va yuqori quvvatli issiqlikni texnologik jarayonlar, turli materiallarni sintezlash va eritish uchun olish (Toshkent viloyati "Quyosh" ilmiy-tadqiqot birlashmasi);
- Atom elektr qurilmalari yordamida (AES) elektr energiyasini olish.

Bu yo'nalishlarni har biri mos quvvatli issiqlik va energiya olish zaruriyati va mohiyatiga ko'ra katta mablag' talab qiladi va hozirgi kunda quyosh energiyasini yig'ish va saqlash uchun katta maydon talab qilingani sababli foydali ish koeffitsenti kichikligicha qolmoqda.

Ma'ruzani mustahkamlash uchun misollar

1. Binolardan foydalanishda quyosh nuridan qanday foydalansa bo'ladi?
2. Alternativ energiya tejash qurilish usullarini qo'llab binolarni konstruktsiyalari yoki qayta qurishda qanday qoidalarga rioya qilish kerak?
3. Quyosh energiyasidan foydalanishning tadqiqot va tajriba sinov ishlari nechta yo'nalishda olib boriladi?
4. Past quvvatli issiqlikni issiq suv bilan ta'minlash qanday binolarni isitish uchun ishlatiladi?
5. O'rta va yuqori quvvatli issiqlikni texnologik jarayonlar nima maqsadda ishlatiladi?
6. Atom elektr qurilmalari yordamida qanday energiya olinadi?

ISSIQLIK OQIMINING DEVORDAN O'TISHI

Issiqlik oqimi devordan o'tayotganda 3 xil qarshilikka uchraydi:

- 1- Ichki havo bilan devor ichki sirti harorati orasidagi mavjud farq orqali vujudga keladigan qarshilik, bunga issiqlik qabul qilish qarshiligi deyiladi:


$$R_{kk} \sim t_i - \tau_i$$

- 2- Devorning ichki va tashqi sirti orasidagi haroratlari farqi bilan bog'lik qarshilik bunga termik qarshilik deyiladi:

$$R_t \sim \tau_i - \tau_t$$

- 3- Devor tashqi sirti harorati bilan tashqi havo harorati orasidagi farq bilan bog'lik qarshilik bunga issiqlik berish qarshiligi deyiladi:

$$R_b \sim \tau_t - t_t$$



Q – issiqlik oqimi.

t_i - ichki harorat y τ_i - devor ichki sirtidagi harorat

t_t - tashqi havo harorati

τ_t - devor tashqi sirtidagi harorat

δ - devor qalinligi.

TASHQI HIMOYA QURILMALARINI QISH SHAROITIGA MOSLAB LOYIHALASH

Bino tashqi himoya konstruksiyalarini qish sharoitiga moslab loyihalashdan maqsad, bino ichidagi insonga kerakli bo'lgan haroratni qish paytida meerida saklab turishdan iborat. Bino tashqi himoya qurilmalarini qish sharoitiga moslab loyihalaganda qurilmaning umumiy qarshiligi R_{um} talab qilingan qarshilik bilan solishtirib ko'riladi

(qarshilikning o'lchov birligi $m^{20} s / Vt$).

Qish sharoitiga moslab loyihalaganda umumiy hisobiy qarshilik, umumiy ruhsat qilingan qarshilikdan katta yoki shunga teng bo'lishi kerak.

$$R_{ym}^{pk} \leq R_{ym}$$

Qurilmaning umumiy hisobiy qarshiligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R_{ym} = R_{kk} + R_t + R_b$$

$\alpha_i = 8,7$ – himoya konstruksiyasini ichki yuzasini issiqlik berish koeffitsienti.

Bu koeffitsient QMQ ning 4- jadvalida beriladi. $VT / m^{20}s$.

$\alpha_t = 23$ - himoya konstruksiyasini tashqi yuzasini issiqlik berish koeffitsienti. Bu koeffitsient QMQ ning 4- jadvalida beriladi.

Himoya qurilmasining termik qarshiligi agar qurilma bir qatlamli bo'lsa, quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$R_t = \delta / \lambda$$

Agar ko'p qatlamli bo'lsa, termik qarshilik:

$$R_t = \sum \delta / \lambda = \delta_1 / \lambda_1 + \delta_2 / \lambda_2 + \dots + \delta_n / \lambda_n$$

formula orqali hisoblanadi.

Bu yerda, δ - himoya konstruksiyasining qalinligi,
 λ - issiqlik o'tkazuvchanlik koeffitsienti. Bu koeffitsient QMQ ning 2 – ilovasida berilgan.

Ruhsat qilingan umumiy qarshilikni topish formulasi quyidagicha:

$$R_{ym}^{pk} = n (t_i - t_t) / \Delta t^n \alpha_i$$

Bu yerda: n - tashqi himoya qurilmasining tashqi havoga nisbatan joylashishini hisobga oluvchi koeffitsient. QMQ ning 3- jadvaliga asosan olinadi. Ko'pchilik xollarda $n = 1$ deb olinadi. Isitilmaydigan yerto'lalarda $n = 0.9$ deb olinadi.

t_{ichki} = ichki havo haroratining hisobiy qiymati.

t_{tashqi} = tashqi qish davridagi hisobiy harorat.

Δt^n = ichki havo harorati bilan himoya qurilmasining ichki yuzasidagi haroratlar o'zgarishi. QMQ ning 2- jadvalidan olinadi. Yerto'lalarda 2°S , bog'chalarda 6°S .

α_i - himoya konstruktsiyalarining issiqlik berish koeffitsienti.

Tashqi havo haroratining tanlab olinadigan qiymati qurilma issiqlik inertsiasiga bog'lik. Himoya konstruktsiyasining issiqlik inertsialiligi quyidagicha aniqlanadi. Agar konstruktsiya bir katlamli bulsa:

$$D = R_t \cdot S$$

Agar konstruktsiya ko'p qatlamli bo'lsa formula quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$D = R_{t1} \cdot S_1 + R_{t2} \cdot S_2 + \dots + R_{tn} \cdot S_n$$

Bu yerda :

S – himoya konstruktsiyasi materialining issiqlik o'zlashtirish koeffitsienti. QMQ ning 3 ilovasidan olinadi. Agar konstruktsiya ichida havo bo'shliqli qatlam bo'lsa, $S=0$ bo'ladi.

Issiqlik inertsialiligi yordamida tashqi havoning hisobiy qiymati quyidagicha bo'ladi:

Agar $D < 4$, bo'lsa tashqi hisobiy harorat 1 sutkalik sovuq kun bo'yicha olinadi.

Agar $4 < D < 7$, bo'lsa tashqi hisobiy harorat 3 sutkalik bo'yicha olinadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$t_{3\text{cut}} = (t_{1c} + t_{5c}) / 2$$

Agar $D > 7$, { inertsialilik 7 dan katta bo'lganda } tashqi hisobiy harorat 5 sutkalik bo'yicha olinadi. Tashqi havoning hisobiy qiymati QMQ 2.01.01-94

” Stroitel'naya klimatologiya i geofizika “ dan olinadi.

TASHQI HIMOYA QURILMALARINI YOZ SHAROITIGA MOSLAB LOYIHALASH

Iyul oyining tashqi havo haroratining o'rtacha qiymati 21°S dan yuqori bo'lgan xududlarda tashqi himoya konstruktsiyalari yoz sharoitiga moslab loyihalanadi. Devorning issiqqa chidamliligi deb tashqi havo harorati o'zgarganda devorning o'z ichki sirtida nisbiy doimiy harorat saqlash qobiliyatiga aytiladi.

Devor ichki sirtidagi harorat o'zgarishining talab qilingan miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$A_{\tau_i}^{t_k} = 2,5 - 0,1(t_t - 21)$$

t_{tashqi} – iyul oyining tashqi havo haroratining o'rtacha qiymati SNiP 2.01.01-82

” Stroitel'naya klimatologiya i geofizika “ dan olinadi.

Himoya konstruktsiyasining ichki yuzasidagi harorat o'zgarishining amplitudasi hisobiy kiymatini quyidagicha aniqlaymiz:

$$A_{\tau_i} = A_{t_t}^x / \gamma$$

$A_{t_t}^x$ – tashqi havo haroratini o'zgarish amplitudasining hisobiy kiymati

γ - harorat o'zgarishlarining so'nish koeffitsienti

$$A_{tt}^x = A_{tt} \cdot 0,5 + (I_{\max} - I_{\text{urt}}) \rho / \alpha_t$$

Bu yerda: ρ - iyul oyida tashqi havo haroratlarini o'zgarishlarining eng katta qiymati SNiP 2.01.01-82" Stroitel'naya klimatologiya i geofizika " dan olinadi.

ρ - Devor tashqi sirti materialining quyosh radiatsiyasini yutish ko'effitsienti. SNiP II-3-79 ni 7- ilovasidan olamiz.

$I_{\max}$, I_{urt} - mos ravishda yigma (to'la) quyosh radiatsiyasining eng katta va o'rtacha qiymati SNiP II.01.01-82 dan olamiz.

Devorlar uchun g'arbiy yunalish bo'yicha olamiz.

α_t - himoya konstruksiyasining yoz sharoitida issiqlik berish ko'effitsienti va bu quyidagicha aniqlanadi:

$$\alpha_t = 1,16 \cdot (5 + 10 \sqrt{V})$$

1,16 –SI birliklarini tug'ri keltiruvchi ko'effitsient.

V – rumb bo'yicha iyul oyidagi o'rtacha shamol esish tezliklarining minimal qiymati.

SHamol esishining takrorlanuvchanligi 16 % dan yuqori bo'lgan .

Agar $V < 1$ bo'lsa, $V=1$ deb olamiz. Buni SNiP II.01.01-82 dan olamiz.

Harorat o'zgarishlarini so'nish ko'effitsienti quyidagicha aniqlanadi:

$$\gamma = 0,9 \cdot e^{\frac{\sum D}{\sqrt{2}}} \frac{(\alpha_u + y_1) (S_1 + y_2) \dots (S_{n-1} + y_n) (S_n + \alpha_T)}{(S_1 + y_1) (S_2 + y_2) \dots (S_n + y_n) \alpha_T}$$

Bu yerda, Y_e – natural lagorifm asosi $Y_e=2.718$

D-issiqlik inertsiyaliligi.

α_i va α_t - issiqlik qabul qilish va berish ko'effitsientlari.

$S_1, S_2, \dots, S_n$ – devor qatlamlari materiallarining issiqlik o'zgartirish ko'effitsienti.

$Y_1, Y_2, \dots, Y_n$ – devor qatlamlarining tashqi sirtining issiqlik o'zlashtirish ko'effitsienti. Bularni quyidagicha aniqlaymiz:

$D_i \geq 1$ bo'lsa, $Y_i = S_i$ bo'ladi.

agar, $D_i < 1$ bo'lsa, u holda Y_1 quyidagicha aniqlanadi :

$$Y_1 = (R_1 \cdot S_1^2 + \alpha_i) / 1 + R_1 \cdot \alpha_i$$

Y_2 bo'lsa, quyidagicha aniqlanadi :

$$Y_2 = (R_2 \cdot S_i^2 + Y_{n-1}) / 1 + R_i \cdot \alpha_i$$

Demak, umumiy holda Y_i ni qiymati quyidagicha aniqlanadi :

$$Y_i = (R_i \cdot S_i^2 + Y_{n-1}) / 1 + R_i \cdot \alpha_i$$

Demak, devor ichki sirtidagi ruhsat qilingan harorat o'zgarishi hisobidan katta yoki shunga teng bo'lishi kerak. $A_{tu}^{pk} \geq A_{\tau i}$

YoRUG'LIK TEXNIKASI ASOSIY TUSHUNCHALAR, KATTALIKLAR, O'LCHOV BIRLIKLAR

Harorati absolyut 0 dan yuqori bo'lgan barcha jismlar atrof muhitga uzluksiz ravishda nur energiyasi deb ataluvchi energiya tarqatib turadi.

Nurlarning tarqalish quvvati yoki nurlar oqimi quyidagicha aniqlanadi:

$$F_e = d Q_e / dt$$

Bu yerda: dt – cheksiz kichik vaqt oralig'i.

Nurlar oqimi (V_t)larda o'lchanadi.

Ultrabinafsha nurlar – monoxromatik tashkil qiluvchilardan iborat bo'lib, to'lqin uzunligi ko'zga ko'rinadigan nurlar to'lqin uzunligidan kichik va 1 nm dan katta.

Ultrabinafsha nurlar yoritilganlik bo'yicha Xalqaro komissiya (MKO) si ma'lumotlariga ko'ra quyidagicha farqlanadi:

UF – A to'lqin uzunligi 315 – 400 nm

UF – V to'lqin uzunligi 280 – 315 nm

UF – S to'lqin uzunligi 100 – 280 nm

Ko'zga ko'rinadigan nurlar – bu kuzatuvchiga bevosita seziladigan nurlardir. Ko'zga ko'rinadigan nurlar spektrini pastki chegarasi 380–400 nm, yuqorigi chegarasi 760–780 nm orasida bo'ladi.

Infraqizil nurlar - monoxromatik tashkil qiluvchilardan iborat bo'lib, to'lqin uzunligi ko'zga ko'rinadigan nurlar to'lqin uzunligidan katta bo'lib, 1nm dan kichik bo'ladi.

Infraqizil nurlar quyidagicha farqlanadi: IK – A to'lqin uzunligi 780 – 1400 nm. IK – V to'lqin uzunligi 1,4 – 3 mkm.

IK – S to'lqin uzunligi 3 mkm – 1mm

Monoxromatik va murakkab ko'zga ko'rinadigan nurlar o'zaro farq qiladi.

Monoxromatik nurlar juda nozik chastota yoki to'lqin uzunligi bilan xarakterlanadi.

Murakkab nurlanish birgalikdagi monoxromatik nurlarni xar hil chastotalarga egaligi bilan xarakterlanadi. Murakkab nurlanishga kunduzgi yorug'likni olsak bo'ladi.

To'lqin uzunliklari xar hil bo'lgan nurlarning ko'zga ta'sirida, u yoki bu ranglarni ajratishga imkon beradi.

O'rtacha ko'ra oladigan odamni ko'zi sariq, yashil nurlarni to'lqin uzunligi $\lambda = 555$ nm bo'lganda yaxshi ilg'ab oladi. Yashil, havo rang nurlarni esa to'lqin uzunligi $\lambda = 510$ nm bo'lganda yaxshi ilg'ab oladi.

Yorug'lik oqimi nurlar oqimi bilan quyidagicha bog'lanishga ega:

$$F_v = K_m \int dF_e/d\lambda$$

Bu yerda: $dF_e/d\lambda$ = nurlanish oqimi bo'lib, u λ va $\lambda + \Delta\lambda$ intervali bilan chegaralangan.

$V(\lambda)$ – yorug'lik spektrini effektivligiga tegishli ko'rsatkich bo'lib, jadval-dan (1.2) olinadi.

Amaliy masalalar yechish paytida, masalan xonalarda tabiiy yorug'likdan foydalanish muddatlarini aniqlashda, yorug'lik oqimini vaqt o'tishi bilan ta'sirini e'tiborga olish kerak. Yorug'lik oqimini davomiyligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Q_v = \int F_v dt \quad \text{Yorug'lik energiyasining birligi (lm}\cdot\text{s)}.$$

INSOLYaTSIYa VA QUyOSHdAN HIMOYa QURILMALAR

Quyosh to'g'ri nurlarining sirtlarga tushish jarayoni insolyatsiya deb aytiladi.

Qurilish fizikasida insolyatsiya deganda, ko'proq xona ichki muhitiga quyosh tug'ri nurlarining tushishi ko'zda tutiladi. Insolyatsiyaning foydali va zararli tomonlari bor.

Insolyatsiyaning foydali tomonlari:

1. Xona ichki havo muhitining sanitar-gigiena holatini yaxshilaydi.
2. Qish kunlari xonalarni isitadi.

Insolyatsiyaning zararli tomonlari:

1. Yoz kunlari xona ichki muhitini haddan tashqari qizdirib yuboradi.
2. Quyosh nuri tarkibidagi ultra binafsha nurlarining ba'zi-bir predmet va texnologik jarayonlarga nomunofiqligi.

Insolyatsiya 2 xil usulda hisoblanadi:

1. Energetik.
2. Geometrik.

Energetik hisobda deraza orqali o'tgan issiqlik miqdori topiladi.

Geometrik usulda kun davomida xona poli sirtiga tushgan quyosh nurlarini konturi yasaladi.

Insolyatsiyani hisoblash uchun quyoshni koordinatalarini bilish zarur.

Quyoshning 2 xil koordinatasi bor:


1. Quyoshning balandligi
2. Quyoshning azimuti

Quyoshning balandligi deb quyosh nurlari bilan uning gorizontal proektsiyasi orasidagi vertikal burchakga aytiladi.

Quyoshning azimuti deb quyosh nurlari gorizontal proektsiyasi bilan janub meridiani orasidagi burchakga aytiladi.

Insolyatsiya yilning xarakterli uch kuni uchun hisoblanadi:

22 iyun, 22 mart, 22 yanvar.



6.1-rasm. Insolyatsiya davomiyligini tartibga solish uchun quyoshdan himoya qurilmalarga quyidagi talablar qo'yiladi:


1. Yoz kunlari maksimal darajada quyosh nurlarini to'sish.
2. Qish kunlari imkoniyat boricha quyosh nurlariga to'sqinlik qilmaslik(kuyosh nurlarini issiklik effektidan foydalanish).

Bular quyoshdan himoya qurilmalarning funktsional talablari hisoblanadi.

Bulardan tashqari quyoshdan himoya qurilmalar arzon, tejamkor, yengil va estetika talablariga javob berishi kerak. Geometrik formasiga qarab quyoshdan himoya qurilmalar gorizonta, vertika va kataksimon shakllarda bo'ladi.

Xar bir orientatsiya uchun optimal bo'lgan quyoshdan himoya qurilmalarning shakli mavjud. Gorizontal quyoshdan himoya qurilmalar janub va unga yaqin orientatsiyalarda yaxshi effekt beradi. Janubga qaragan derazaning yoz kunlari quyosh nurlaridan to'la to'sish va qish kunlari quyosh nurlariga hech qanday xalaqit qilmaslik talab qilinadi.

Quyosh nurlari yoz paytida 72^0 , qish paytida esa 30^0 burchak ostida janub yunalishida chiqadi. Gorizontal quyoshdan himoya qurilmaning o'lchami haddan tashqari katta bo'lsa, uning o'lchamiga bir nechta quyoshdan himoya qurilmalar ishlatilishi mumkin. SHark, G'arb va unga qkin orientatsiyalarda vertikal quyoshdan himoya qurilmalar ishlatiladi. Vertikal quyoshdan himoya qurilmalarni tarz tekisligi bilan hosil qilgan burchakni o'zgartirish natijasida insolyatsiya vaqti va davomiyligini tartibga solish mumkin.



6.2 - quyoshdan himoya qurilmalarining turlari.

A K U S T I K A

ARXITEKTURA AKUSTIKASI

Tabiatda inson hamma tomondan doimo tovushlar qurshovida bo'ladi.

Tovushlarni eshitayotib, inson turli xil emotsional kechinmalar – xursandchilik, qurquv, notinchlik va h.k. larni o'zidan o'tkazishi mumkin.

Tovush nutqning asosini tashkil etadi, ya'ni u insonlar o'zaro muloqotining vositasidir.

Musiqqa turli – tuman sezgi hissiyotlar tug'diradigan tovushlarning murakkab kompleksidan iborat. Va nihoyat tovushlarning shunday maxsus turi borki, u shovqin deb atalib, oxirgi 10 yillikda insoniyatning havfiga aylanmoqda. SHovqin xavotirlikni yuzaga chiqaradi, nutq va musiqani eshitishni qiyinlashtiradi, ba'zi hollarda eshitmay qolish va boshqa ba'zi kasalliklar sababchisiga aylanadi.

SHunday qilib, loyihachilar oldida qarama – qarshi 2 ta masala: birinchisi – nutq va musiqani eng yaxshi qabul qilishga sharoit yaratish bo'lsa, ikkinchisi shovqinlarni mumkin qadar kamaytirish vazifalari quyiladi.

Bu masalalarni hal qilish uchun arxitektorlar tovush va shovqinlarning fizik va fiziologik tomonlarini, territoriyada va xonalarda ularning tarqalish qonuniyatlarini, shovqin man'balari hakida tafsilotlarni, tovush va shovqinni kuchaytirish va kamaytirishning arxitekturaviy-tarxiy va konstruktiv uslublarini va bular haqida mavjud me'yo'riy xujjatlarni bilishlari lozim bo'ladi.

TOVUSHNING FIZIK TABIATI

Hayotda xar xil turdagi tebranma va to'liqin harakatlari ko'p uchraydi: suv sirtidagi to'liqin xarakati, radio to'liqinlarini tarqalishi va boshqalar.

Tovush bu – havodagi, suvdagi va qattik jismlarda turli xil ko'rinishdagi tebranma harakatdir. Havo elastik xususiyatga ega. Havo asosan siqilishga qarshilik ko'rsatadi; siqilgan havo o'ziga xos prujina. SHunga ko'ra havo massa va inertsiiyaga ega. Havoni elastiklik xususiyati va inertsiiyasi o'z navbatida to'satdan havoni zichligini o'zgarishidan elastiklik to'liqinlarini tarqatadi. Elektromagnit tebranishlardan farqli ravishda havoni elastiklik to'liqlari to'liqini tarqalish yo'nalishi bo'ylab tarqaladi. Bunday tebranishlar bo'ylama tebranishlar deb aytiladi. To'liqin harakatining asosiy xarakteristikasidan biri bu to'liqin uzunligidir. To'liqin uzunligi bitta do'nglikdagi to'liqinning ikki nuqtasidagi masofa. Yana bitta xarakteristikasi to'liqinning amplitudasidir. Bu to'liqinning tebranayotgan qismidan muvozanat holatigacha bo'lgan masofasidir. Bulardan tashqari tebranish jarayonida tebranish fazasi va fazalar siljishi ham katta ahamiyatga ega. Fazalar siljishiga qarab bitta sinusoida siljishidan boshqa bir tebranishidagi sinusoidani farqlash mumkin. Siljish fazasining o'lchov birligi bo'lib, burchak xizmat qiladi. Agar bu burchak 0 ga teng bo'lsa, bunda tebranish bitta fazada sodir bo'ladi.

Tovush to'liqlari boshka to'liqin xarakatlari singari to'liqin uzunligi, tebranish chastotasi va tarqalish tezliklari bilan xarakterlanadi. Tovush to'liqlarini normal odam eshitish chastotasi 20da 20000 Gts atrofida bo'ladi bunga mos ravishda tegishli to'liqin uzunligi 17m dan 1,7sm gacha bo'ladi. 20Gts chastotadan past bo'lgan tovush tebranishi infratovush tebranish, 20000 Gts dan yuqori bo'lgan tovush chastotasi esa ultratovush tebranishi deyiladi. Tovush to'liqini ma'lum bir tezlikda tarqaladi.

Havoda tovush tezligi quyidagicha formulada topiladi:

$$S = \sqrt{1,41} p / \rho$$

BU YERDA, 1,41 - HAVONI DOIMIY BOSIMDAGI VA DOIMIY
HAJMDAGI ISSIQLIK HAJM BOG'LIQLIGI.

P - atmosfera bosimi. Pa

ρ - havoni zichligi. kg/m³

r/ ρ - nisbat havo haroratiga bog'lik. Bundan foydalanib, tovush tezligini haroratga bog'likligini aniqlash mumkin:

$$S = 20 \sqrt{T}$$

T – absolyut xarorat.

Bundan foydalanib, xar xil haroratdagi tovush to'liqlarini tezligini aniqlash mumkin.

Misol: 0°S da $s = 331,5\text{m/s}$

18°S da $s = 342\text{m/s}$

to'liq aniq tezlik bilan harakat qiladi. Tovush to'liqini harakati quyidagi bog'liklikka ega:

$$\lambda = s/f = sT$$

λ - to'liq uzunligi, m

f – tebranish chastotasi, Gts

s – tovush tezligi, m/s

T – tebranish davri.

To'liq harakatining asosiy xususiyatlaridan biri bu interferentsiya va difraktsiyadir.

Ma'ruza mustahkamlash uchun savollar

1. To'sib turuvchi konstruksiyalarning fizikaviy-texnik hususiyatlari
2. Konstruksiyalarning issiqlik o'tkazuvchanligi deganda nimani tushunasiz?
3. Termik qarshilik nima?
4. Qurilish akustikasining vazifalari nima?
5. Tovush deb nimaga aytiladi?
6. Tovushning fizik tabiati.
7. Binolarni yoritish usullari
8. Insolyatsiyaning o'рни va ahamiyati Yorug'lik texnikasi bo'limi va uning asosiy vazifalari.
9. Yorug'lik nurlari va ularning fizik tabiati.
10. Ul'trabinafsha nurlar deb qanday nurlarga aytiladi?
11. Infraqizil nurlar deb qanday nurlarga aytiladi?
12. Ko'zga ko'rinadigan nurlar deb qanday nurlarga aytiladi
13. Insolyatsiya nima?
14. Insolyatsiya qanday aniqlanadi?

Quyosh energetikasi rivojlanishining ekologik oqibatlari

Quyosh stantsiyalari yetarlicha o'rganilmagan ob'ektlar bo'lib, ularni ekologik toza elektrostantsiyalar qatoriga qo'shish uchun to'liq asos yo'q.

Quyosh stantsiyalari ko'p maydonni egallaydi. QESlarining solishtirma maydon egallashi 0.001dan 0.006ga/kVt gacha o'zgaradi. Bu maydon GESga nisbatan kichik, lekin issiqlik elektr stantsiyalari atom elektr stantsiyalari egallaydigan maydonlardan katta. Quyosh stantsiyalari tarkibiga juda ko'p miqdorda metall, shisha, beton va h.k. sarflanadi, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda xom ashyo qazib olish va qayta ishlash bosqichidagi yerni qazib olinishi hisobga olinmagan. Quyosh elektr stantsiyalari yaratilgan taqdirda, uning maydon egallashi oshadi va yer osti suvlarini ifloslanish darajasi ham oshadi.

Quyosh konsentratorlarini yer maydonlariga soyasi katta tushadi, bu esa tuproq, o'simlik dunyosini o'zgarib ketishiga olib keladi. Stantsiya joylashgan hududda quyosh nurlanishi sodir bo'ladigan vaqtda havo isib ketadi. Bu esa o'z vaqtida issiqlik, namlik balansi, shamol yo'nalishi o'zgarishiga olib keladi; ayrim hollarda

sistemani qizib ketishi va yonib ketishi ehtimoli bor va uning oqibatlarini yomon bo'lishi mumkin. Quyosh energetik sistemalarda past qaynaydigan suyuqliklarini uzoq muddat ishlatilishida, bu suyuqliklar oqib chiqib ketishidan ichimlik suvlari ifloslanish ehtimoli bor. Ayniqsa tarkibida yuqori oksid modda bor bo'lib hisoblangan nitrit va xromatlar bo'lgan suyuqliklar xavflidir. Quyosh texnikasi atrof-muhitga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Uni rivojlantirish uchun mo'ljallangan hududlarda beton, shisha va po'lat ishlab chiqarish yirik majmualarini qurish zarur bo'ladi. Kremniyli, kadmiyli va arsenidagelli fotoelektrik elementlar tayyorlash vaqtida ishlab chiqarish xonalarida insonlar salomatligi uchun zararli kadmiyli va arsenidli chang birikmalar hosil bo'ladi.

Kosmik quyosh elektr stantsiyalari nurlanish hisobiga iqlimga o'z ta'sirini o'tkazadi, telealoqa va radioaloqalar uchun noso'zliklar, uning ta'siriga tushib qolgan himoyasiz tirik organizmlarga zarar yetkazadi. SHu munosabat bilan yerga energiya uzatish uchun ekologik toza to'liqlar diapazonidan foydalanish zarur.

Quyosh energiyasining atrof-muhitga nohush ta'siri quyidagilarda o'z aksini topishi mumkin:

- yer maydonlari degradaniyasi;
- katta material sig'imida;
- tarkibida xlorat vanitriti bo'lgan ishchi suyuqliklarning oqib chiqib ketishida;
- sistemalarni qizib va yonib ketish xavfi, quyosh sistemalaridan qishloq xo'jaligida foydalanilganda toksik moddalar bilan mahsulotlarni zararlanishida;
- stantsiya joylashgan hudud issiqlik balansi, namlik, shamol yo'nalishi o'zgarishida;
- katta hududlardagi yorug'lik quyosh konsentratorlari ta'siridan to'silib qoladi natijada yer unumdorligi yo'qoladi;
- kosmik QESlarini iqlimga ta'sirida;
- televizion va radioaloqalardagi noso'zliklarda;
- yerga energiyani mikroto'liq nurlanishi vositasida yuborilishi tirik organizmlar va insoniyat uchun zararliligida;

Ekologik holat arxitektor va quruvchilardan yangi fikrlashni talab qiladi. An'anaga aylanayotgan zamonaviy energetika, energiya tashuvchilar turidan qat'iy nazar atrof-muhit ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bino va shaharlarni energiya bilan ta'minlash sohasida yangi hosil bo'luvchi resurslardan tejamkor foydalanish imkonini beruvchi yechimlarni qabul qilish lozim. Asosan quyosh energiyasidan foydalanilgan. Nashr etilgan ma'lumotlar, xususan Internet ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, butun jahonda energiyaga bo'lgan ehtiyoj yangi hosil bo'luvchi quvvat manbalarini 4-avlodidan foydalanishga turtki bo'lmoqda. Bunday usullar binolarni energiya bilan ta'minlashni tejamkor vositalari – quyosh qurilmalarini jihozlash va o'rnatishni kam sarf-xarajat qilib amalga oshirish imkonini beradi.

Ishlanmalar ichida ikkita yo'nalishni belgilash va hisobga olish lozim:

- mayda avtonom iste'molchilarni energiya bilan ta'minlashga mo'ljallangan chegaralangan quvvat darajali quyosh energoqurilmalarini ishlab chiqarish va qo'llash;
- shimoliy va cho'l hududlarida chegaralangan quvvatga ega bo'lgan quyoshli energetik stantsiyalar yaratish;

Dunyo bo'yicha 70 dan ortiq mamlakatlarda gelioenergetik dasturlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Germaniyada "Mingta tom" loyihasi ishga tushirilgan, u yerda 2250ta uy fotogalvanik uskunalari bilan jihozlangan. AQSHda 2010 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan "Million quyoshli tom" dasturi qabul qilingan. Hozirgi kunda millionlab quyoshli suv isitkichlar ishlatilmoqda. "Quyoshli uylar" keng tarqalmoqda. Sistemalarni so'zlashni boshqarish usullari ishlab chiqarilgan.

Butun jahonda yangi hosil qiluvchi energiya manbalaridan foydalanish tejamkorligi tahlil kilinmoqda. Quyosh va shamol quvvatidan umumiy energetika sifatida foydalanishda dunyo bo'yicha yetakchi mamlakatlar: AKSH-17%, Frantsiya-15%, Daniya-50%, Xitoy-14%, Hindiston-22%, Lotin Amerikasi-35% gacha, Avstriya-25%, Germaniya, Isroil, Rossiya 2010 yilga kelib 10% ni tashkil etadi.

O'zbekistonda 1997 yilda "energiyadan ratsional foydalanish to'g'risidagi qonun" qabul qilindi. Bu qonunda alternativ energiya manbalaridan foydalanish uchun mo'ljallangan uskuna ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar orasidagi munosabatlar, hamda imtiyozlar belgilab berilgan.

"Kichik" energetikani amalda rivojlantirish maqsadida 2000 yilda O'zbekiston Respublikasi FA ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi "Fizika-Quyosh", "Maxsus uskuna", OAJ "Texnolog" birgalikda mahalliy ishlanmalariga asoslangan issiq suv bilan ta'minlashga mo'ljallangan quyosh qurilmalarini konstruksiyalari, ishlab chiqarish, o'rnatish, ishlatish bo'yicha maxsus korxona – OAJ "Qurilishgelioservis" tashkil qilindi. "Qurilishgelioservis" OAJ ob'ektni tekshirish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqarish, uskunalarni tayyorlash va jamlash, yig'ish va so'zlash, texnik nazorat hamda sistema foydalanishga topshirilgandan keyin xodimlarni bir yil davomida o'qitish vazifalarni bajaradi.

"Uztrans" aktsiyanerlik kompaniyasi buyurtmasi bo'yicha Samarqand viloyatining Oqariq posyolkasida geliomaydon yaratish bo'yicha loyiha hozirgi kunda amalga oshirilmoqda.

Bu aktsionerlik kompaniyasi tomonidan najotli dastur asosida uzoq muddatli hamkorlik doirasidan 1000 litrdan 3000 litrgacha issiq suv ishlab chiqarishga mo'ljallangan 8 ta quyosh qurilmasi o'rnatilgan. Gazli geliosistemalar bilan maktab, kasalxona, poliklinika va bolalar bog'chasi jihozlanishi rejalashtirilgan. Xuddi shunday uzoq muddatga mo'ljallangan hamkorlik rejasi Davlat aktsionerlik temir yo'llar kompaniyasi bilan amalga oshirilmoqda. Uning doirasida oltita loyiha ishlab chiqildi. Yaqinda Buzauboy poselkasidagi maktabda uskuna foydalanishga topshirildi.

"Qurilishgelioservis" korxonasi "sendvich" materialidan ishlangan devorli to'siqlarga o'rnatilgan avtonom geliosistemali mobilyuvish blok va dushxonalar variantlarini ishlab chiqdi va sinov tariqasida ular ishlab chiqargan nusxalar o'rnatildi.

O'zbekiston hududida quyosh sistemalarini qo'llash istiqbollari porloq. Aholini faqatgina issiq suv bilan ta'minlash uchun 3 mln.kv.m kollektorlar zarur. Qishloq vrachlik punktlariga 2000dan ortiq avtonom sistemalar kerak.

“Qurilishgelioservis” OAJ mutaxasislari tomonidan ishlab chiqilgan geliosistemalar konstruktsiyalari yangi ixtiro deb tan olingan, mualliflik huquqi bilan himoyalangan. SHaxsiy ishlanmalar asosida ishlab chiqarilgan geliotexnika obro’li xalqaro tashkilotlar va mutaxassislar tomonidan tan olingan va bu ixtiro yevropa mamlakatlari sistemalari bilan solishtirilishiga haqli.

Alʼternativ energotaʼminot qurilish usullaridan foydalanib binoni konstruktsiyalari yoki qayta qurish asosiy qoidalari:

- hudud iqlimi va qurilish olib boriladigan muayyan joy meteosharoiti, geleomaydoni quyosh nuri bilan yoritilganligi, shamol energiyasi qurilmalari mintaqasidagi shamol oqimlari harakatini hisobga olish zarur;

- energiya taʼminoti sharoitlari, binoni quyosh nurlarini qabul qilishining optimal variantlarini albatta hisobga olish kerak;

- keyinchalik alʼternativ energiya bilan taʼminlashdan foydalaniladigan turar joy binolarini qurish va qayta qurilishda energetik jihatdan tejamkor bino barpo etishga xarakat qilish kerak, kuchli issiqlik himoyasi va optimal xajmiy-tarxiy yechim hisobiga binoning issiqlik yoʻqotishi eng kichik miqdorga keltirilishi zarur;

- turar joy muhitini yaratishda ekologik yondashuv koʻzda tutilishi zarur.

- quyosh energiya taʼminoti va shamol energiyasi uskunalaridan foydalanilgan passiv va faol sistemalarini oʻrnatishni, Oʻzbekiston turar joy fondi ommaviy qayta qurish bilan uygʻunlikda olib borishi maqsadga muvofiqdir;

- quyosh va shamol uskunalaridan integrallangan foydalanish tavsiya qilinadi, elektr tarmogʻiga elektrni generatsiyalovchi, yaʼni ortiqcha energiyani tashlab va yetishmaganini yigʻib oladigan qurilmani oʻylash lozim;

- seriyali ishlab chiqarishni yoʻlga qoʻyish kerak;

- alʼternativ sistema konstruktsiyalarini soddalashtirish orqali alʼternativ sistemalardan olingan energiya tannarxini pasaytirish erishish lozim;


- turli iqlim sharoitlarida ishlaydigan quyosh sistemalarini konstruktsiyalarida gelioqabulqiluvchilarni binoning turli konstruktsiyalarida joylashtirishni hisobga olish;

- maxsus choralar qoʻrilmaganda geliomanbalarning quyosh nurlanishiga uchragan yuzasi havo harorati bilan bir xil boʻlib qoladi, shuning uchun haroratni oshirish uchun yassi kollektorlar, selektiv qoplamali kollektorlar, quyosh energiyasi kontsentratorlari, akkumlyator batareyalari va boshqalar talab qilinadi;

- bugungi kunda binolar murakkab xolistatik sistemalar boʻlib hisoblanadi, yangi quyosh texnologiyasining estetik integratsiyasi, konstruktsiyalarida markaziy gʻoya boʻlishi kerak.

Bularning barchasi issiqlik elektr bilan taʼminlash sistemasini, standartlarni, qoidalar va boshqa yangi mutaxassislar tayyorlashni qayta koʻrib chiqish, passiv (faol) quyosh isitish sistemalarini yangilash, Oʻzbekistonga xos meʼmoriy milliy uslublarni saqlagan holda binoga oson oʻrnatiladigan yangi sistemalarni ishlab chiqarishni talab

etadi. Quyosh energetikasi ideali- bu isitish sistemali uy emas, balki hozirgi isitish sistemasi umuman kerak bo'lmagan uy.




2.16-rasm. Quyosh energiyali kollektorlarni joylashtirish usullari:
a – qiya qoplamada: Mixel'sona Rossiya, Tomasona, AQSH va Masanosuke Yangimachi, Yaponiya quyoshli uylari;
b – yassi qoplamada: Ataskaredodagi quyoshli uylar va Tomason uyi, AQSH;
v – bino tashqi devorida: Douverdagi quyoshli uy, AQSH;
g – ayvon, lodjiya to'siqida: Selivanov quyoshli uyi, Rossiya;
d – bino tsokolida; Baer quyoshli uyi, AQSH;
e – avtonom kollektorli avtonom quyoshli uy, AQSH.

Kollektor-vitrajlar.

2.18-rasm. Energiyafaol turar joy binolari va majmualari:

a – avstriyacha quyoshli uy, 1976;
b – Embrundagi uy (arxitektor A.Taves, R.Rebutato); umumiy ko'rinish, qirqim;
v – Farosdagi uy (arxitektor X.Piot);



2.19-rasm. Binolarni energetik faolligini oshiruvchi konstruktiv usullar.

a – quyosh energiya kollektorini maydonini bino o'lchamlaridan oshirish;
b – yordamchi binoda qo'shimcha kollektorlarni joylashtirish;
v – binoni Quyosh xaroratiga qarab aylantirish; g – Quyoshni kuzatuvchi


kollektor;

d – panel – aylanma kollektor;

e – kollektorni nur qaytargich bilan optik to'ldirish;

j - kollektorni nur qaytargich bilan optik to'ldirish va tashqi nur qaytargich;

z – nur qaytargichlar,aylanma ekranlarni qo'llash.



2.20-rasm. Energiyafaol sanoat binolari va majmualari.
[Toshkent]

Kontsentrator va texnologik minora, qirqim.

(binoni kontsentrator bilan uyg'unlashtirish: ishlab chiqarish-laboratoriya kompleksi, kontsentrator bilan birlashtirilgan).

2.21-rasm. Geliofaol binolarni joylashtirishning energetik faolligini oshirishga xizmat qiladigan shaharso'zlik usullari.

a – alohida binolarning to'g'ri yo'nalishi;
b – quyosh energiyasini qayta taqsimlash;
v – tabiiy ob'ektdan nur qaytarish; g – texnik uskunalar (nur qaytargichlar) vositasida nur qaytarish.

2.22-rasm. Quyosh harakatini kuzatish tartibida aylanuvchi binolar.

a – suvda suzuvchi asosda;
b – rezervuar ko'rinishidagi poydevorda;
v – svayli poydevorda;
g – nishabli devorli rezervuarli svayli poydevorda;
d – siljib yuruvchi bino;
e – havo yostiqchali poydevorda.

Turli tadqiqotchilar gelio qabul qilgichlarning ishchi yuzasini optimal yo'naltirishni turlicha tavsiya qiladilar (2.20-2.21-rasm). V.A.Akopdjan'yan gelio qabul qilgichlarni umumiy janubga yo'naltirganda 15^0 g'arbga og'dirishni tavsiya qiladi, uning fikricha bu holat quyoshdan keladigan issiqlikni eng ko'p miqdorini olishga yordam beradi. Boshqalar (xususan TashZNIIEPa - O'rta Osiyo uchun) janub yo'nalishidan sharqqa og'dirishni tavsiya qiladilar va kunning ikkinchi yarmida havoda changlanish kuchli bo'ladi va issiqlik oqimi kamayadi, deb hisoblaydilar (2.20), nihoyat S.V.Zokoley, A.A.Seidovlar janubiy yo'nalishdan sharqqa ham, g'arbga ham $15...30^0$, chegarada og'ishiga ruxsat beradilar, chunki bunday og'ishlar issiqlik kesishi yig'indisining 2%chagina kamayishiga olib keladi. (2.20-rasm a,b).

Gelioqabulqilgichlar nishabi burchagi kattaligini ko'pgina tadqiqotchilar fikriga ko'ra, joyning geografik kengligiga teng qilib olish mumkin (2.21-rasm). Bunda ayrim xususiyatlarni diffuz nurlanish ulushini hisobiga olish lozim. Qaerda bu ulush

katta bo'lsa, gelioqabul qilgichlar nishabi burchagini kichiklashtirish lozim. To'g'ridan to'g'ri quyosh nurlanishi ustun joylarda A.A. Seidov tavsiya qiladi:


Sutka davomida haroratlanuvchi sistemalar uchun:

$\alpha = \varphi + 10 \dots 15^\circ$; bu yerda φ - joy kengligi; gelioisitish ; $\alpha = 90^\circ - h_\lambda$,

bu yerda h_λ - 15 yanvar kunning o'rtasidagi quyosh balandligi;


faqat iliq vaqtda harakatlanuvchi geliosistemalar uchun: $\alpha = \varphi$.

Kam qavatli qurilishda gelioqabulqilgichlarni uyning janubiy fasadiga vertikal joylashtirish tavsiya qilinadi. Bu holda gelioqabulqilgichlar kamroq changlanadi, yorug'likni to'smaydi.



2.23-rasm. Gelioqabulqilgichlar ishchi yuzasini optimal burchagi:

a – Zokoley bo'yicha; b – A.A.Seidov bo'yicha; 1-yillik; 2 – iliq vaqtda; v – V.A.Akopdjan'yan bo'yicha; g – TashZNIIEP tavsiyasi bo'yicha;



2.24-rasm. Geliokollektorlarni nishablarni optimal burchagi:

a– iliq davr uchun; b– yil bo'yi; v – isitish uchun.

Kollektorlar soyalanishini hisoblashi mavjud usullar bo'yicha amalga oshiriladi. Kollektorlarni soya beruvchi jismlardan uzoqlashtirish amaliy tavsiyalari: janubiy hududlarda – $2N_{ga}$; 40° kenglikda – $2.4N_{ga}$; 45° kenglikda – $3N_{ga}$ teng bo'ladi. N – kollektor sathidan soya beruvchi jism balandligi.

Faolgeliosistemalarning 2-turi shunisi bilan farq qiladiki, kollektorlar ishi samadorligini oshirish uchun nur qaytargichlar (geliostatlar) o'rnatiladi (2.22-rasm).

Ulardan qaytgan quyosh nurlarini kollektorga yo'naltiradi, bu kollektorlar qabul qiladigan va qaytadigan quyosh nurini oqimini kuchaytirishga olib keladi.


Nur qaytargichlardan foydalanish 2...4 marta kollektorlar maydonini kichraytirish imkonini beradi.

Faol geliosistemalarning 3-turi nisbatan murakkab. Bunday sistemalar kollektorlari sferik yoki parabola shakliga ega (2.23-rasm). Ular quyosh nurlarini maxsus qabul qilgichlarga fokuslaydi. Quyosh energiya kontsentratsiyasi 400...650⁰S harorat olish imkonini beradi va uskunaning foydali ish koeffitsienti (75%) baland bo'lganda bundan ham yuqori harorat olish imkonini bor.

Bunday turdagi uskunalar keng foydalanishga sistema murakkabligi va uning qimmatligi to'sqinlik qiladi.

Faol turdagi gelioskunalarda issiqlikni saqlab turish moddalarning issiqlik sig'imi hodisasiga asoslangan. Issiqlik saqlaydigan muhit sifatida suv, yog', antifrizlar, havo va boshqalar qo'llaniladi. Akkumulyator sifatida tosh(gal'ka) yoki shag'al qo'llanilganda uning hajmi suv ishlatilgandagiga qaraganda 2 barobar katta bo'ladi. Akkumulyator material qo'llanilayotgan konstruksiyada issiqlik tashuvchining turiga bog'liq. 2.23-rasmda issiqlik saqlashning taxminiy sxemalari ko'rsatilgan. Issiqlik tashuvchi gazsimon bo'lganda akkumulyator vazifasini odatda – tosh, shag'al, qiya monolit va h.k. bajaradi. Issiqlik tashuvchi suyuq bo'lganda akkumulyator sig'im ko'rinishida o'rnatiladi, sig'im issiqlik tashuvchi sifatida ishlatilayotgan suyuqlik bilan to'ldiriladi

Qo'shimcha isitgich-geliosistema, yilning istalgan kunida tejamkor ishlashga mo'ljallangan bo'lib, juda katta quvvatli zahirasi ega bo'ladi va iqtisodiy jihatdan uncha tejamli bo'lmaydi. Iqtisodiy jihatdan kichik yuzali kollektorlarni tanlash foydali, zaruriyat tug'ilgan kunlarda esa qo'shimcha isitkich – kolorifer, qozon yoki elektr isitkichdan foydalanish mumkin.



Qo'shimcha isitkichdan yana geliosistemani issiq suv bilan ta'minlash lozim bo'lgan hollarda foydalangan zarur, chunki xo'jalik ehtiyojlari uchun suv 60...65⁰S haroratga ega bo'lishi kerak.

2.25-rasm. Geliosistemalar samaradorligini nur qaytargichlar yuzasini kattalashtirib amalga oshirish.

Geliosistemadagi issiqlik tashuvchi uning o'lchamlari va konstruksiyasini aniqlaydi. Issiqlik tashuvchini tanlash ta'minlanadigan qulaylikka, bino turiga, an'anaviy qo'shimcha sistema turiga, iqlimga, mablag'ning mavjudligiga, ishonchlik

talablariga qarab amalga oshiriladi.

Gazsimon issiqlik tashuvchi faqat cheklangan foydalanish masalalarini hal qilishda qo'llanilishi mumkin, bunda binoni faqat isitish talab qilinadi yoki bino kichik o'lchamlarga ega va kollektorlar hamda akkumulyatorlar orasidagi masofa kichik

bo'lsa, boshqa hamma hollarda suyuq issiqlik tashuvchilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir, ular vositasida isitish, issiq suv bilan ta'minlashni amalga oshirish mumkin, ularning quvurlari ham joy egallaydi va havo quvurlaridan arzonroq, ularda issiqlik kamroq yo'qotiladi. Suyuq issiqlik tashuvchi vositasida bino isitilganda xona ichida qulay sharoit yuzaga keladi, bunda yelvizak, shamol urishi his qilinmaydi.

Issiqlik tashuvchisi suyuqlik bo'lgan issiqlik sistemasidan foydalanishning uchta varianti mavjud: avtonom, har bir binoga alohida xizmat ko'rsatiladi; mahalliy-markaziy, markazlashgan issiqlik shaxobchalari va kollektorlari binolarda joylashgan; markaziy, kollektorlar va issiqlik shohobchalari turar joy qurilishi tashqarisiga chiqarilgan bo'ladi.


U yoki bu variantni tanlash muayyan sharoitlar bilan belgilanadi.

Faol geliosistema qacda joylashgan bo'lishiga qaramay, istalgan xonani issiqlik bilan ta'minlash imkonini beradi. SHu sababli binolarning tarhiy yechimida hech qanday o'zgarishlar bo'lmaydi. Konstruktiv yechimlarda ham, 2.23a-rasmda ko'rinib turganidek, boshida hech qanday alohida xususiyatlar bo'lmagan edi, Bolderi (AQSH)dagi quyoshli uy oddiy kichik nishabli ustida joylashtirilgan kollektorlarga ega. Bu $K_{gp}=0,42$ kichik qiymati va binoni issiqlikka bo'lgan ehtiyoji (40%) qondirishdagi geliosistemani kichik solishtirma og'irligini belgilaydi.

Keyinchalik geleo qabul qilgichlarni nisbatan qiya burchak ostida o'rната boshladilar. 2.24b-rasmda Z. Tomason (AQSH)ning quyoshli uyi ko'rsatilgan, bu uyda gelio qabul qilgichlar 60° burchak ostida o'rnatilgan. Bino hajmining gelioqabulqilgichlar oldiga joylashtirilgan bir qismining tomi yassi, uning kollektorlarida ish samaradorligini oshiruvchi nur qaytargichlar o'rnatilgan. Kollektorlar uchun zarur maydon va mos nishablik ta'minlashi uchun binoning chordog'i baland qilib qurilgan.

Binoni quyosh nuri bilan ta'minlanish koeffitsenti $K_{gp}=0,6$, bu binoni quyosh energiyasi hisobiga issiqlik bilan ta'minlashda geliosistemani solishtirma og'irligi 75%ga yaqin.

Kollektorlarni tom elementlari va vertikal to'suvchi konstruksiyalar sifatini kiritish tejamkordir. Bu geliosistema bahosini 30%ga pasaytirish imkonini beradi.



2.27.rasm

Sferik (a) va parabolik(b)
kollektorli geliosistemalar.

Ma'ruzani mustahkamlash uchun misollar

1. Quyoshli kollektorning umumiy ko'rinishini chizib bering.
2. Issiqlik tashuvchisi suyuqlik bo'lgan issiqlik sistemasidan foydalanish
3. Binoni quyosh nuri bilan ta'minlanish koeffitsienti
4. Xo'jalik ehtiyojlariharorati necha °S bo'lishi kerak.5.Sferik (a) va parabolik(b) kollektorli geliosistemalar sxemasini tushuntirib bering?

Noan'anaviy va yangi hosil bo'luvchi energiya manbalaridan foydalanishning ekologik muammolari

Mavjud ekologik muammolar majmuasida energetika yetakchi o'rinlaridan birida turadi. Yangi hosil bo'luvchi energiya manbalarini amaliy qo'llanishga jalb qilinishi ularni atrof-muhit ekologiyasiga ta'sirini o'rganishga e'tibor qaratishga majbur qilmoqda.

SHunday fikrlar mavjudki, yangi hosil bo'luvchi energiya manbai hisobiga elektr energiyasi mutlaqo ekologik "toza" variant. Bu juda to'g'ri fikr emas, chunki an'anaviy organik mineral va gidravlik yonilg'i asosidagi energoqurilmalar ayrim hollarda kamroq xavf tug'diradi. SHuningdek, yangi hosil bo'luvchi energiya manbalarining atrof-muhitga ekologik ta'siri hozirgacha aniq emas, ayniqsa vaqt jihatidan, shuning uchun bu ta'sir manbalaridan foydalanish, mexanik masalalariga qaraganda kamroq o'rganilgan. Gidroenergetik resurslar yangi hosil bo'luvchi energiya manbalarining bir turi bo'lib hisoblanadi. Uzoq vaqt uni ekologik "toza" energiya manbai deb ham atashgan. Bunday foydalanishning ekologik oqibatlarini hisobga olmay, tabiatni va atrof-muhitni himoya qilish chora-tadbirlari ko'rilmagan, bu 90-yillarga kelib gidroenergetikani chuqur krizisga olib keldi. SHuni hisobga olib, yangi hosil bo'lgan energiya manbalaridan foydalanishning ekologik oqibatlari oldindan tadqiq qilinishi zarur.

Noan'anaviy yangi hosil bo'luvchi manbalar energiyasini yaroqli shaklga elektr yoki issiqlik holiga keltirish zamonaviy bilim va texnologiyalar darajasida nisbatan qimmatga tushadi.

Hamma hollarda ham ulardan foydalanish organik yoqilg'i sarfini pasayishiga va atrof-muhitni nisbatan kamroq ifloslanishga xizmat qiladi. SHu kungacha yangi hosil bo'luvchi manbalardan olinadigan an'anaviy usullarni texnik-iqtisodiy solishtirish natijasida ekologik omillar hisobga olinmagan yoki faqat aytib o'tilgan, miqdor jihatidan ham baholanmagan. SHunday qilib, yangi hosil bo'luvchi energiya manbalaridan foydalanish oqibatida yuzaga keluvchi ekologik muammolarning yechimi dolzarb bo'lib bormoqda. Energiyani bir turdan boshqasiga o'tishida yangi usullar o'ylab topish an'anaviy uskunalardan foydalanilganga nisbatan atrof-muhitga kamroq zarar yetkazish imkonini berishi zarur.

Noan'anaviy yangi hosil bo'luvchi energiya manbalarini turli tabiiy muhit va ob'ektlarga ekologik ta'sirining asosiy omillarini ko'rib chiqamiz.

Quyosh energetikasi rivojlanishining ekologik oqibatlari

Quyosh stantsiyalari yetarlicha o'rganilmagan ob'ektlar bo'lib, ularni ekologik toza elektrostantsiyalar qatoriga qo'shish uchun to'liq asos yo'q.

Quyosh stantsiyalari ko'p maydonni egallaydi. QESlarining solishtirma maydon egallashi 0.001dan 0.006ga/kVt gacha o'zgaradi. Bu maydon GESga nisbatan kichik, lekin issiqlik elektr stantsiyalari atom elektr stantsiyalari egallaydigan maydonlardan katta. Quyosh stantsiyalari tarkibiga juda ko'p miqdorda metall, shisha, beton va h.k. sarflanadi, yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda xom ashyo qazib olish va qayta ishlash bosqichidagi yerni qazib olinishi hisobga olinmagan. Quyosh elektr stantsiyalari yaratilgan taqdirda, uning maydon egallashi oshadi va yer osti suvlarini ifloslanish darajasi ham oshadi.

Quyosh kontsentratorlarini yer maydonlariga soyasi katta tushadi, bu esa tuproq, o'simlik dunyosini o'zgarib ketishiga olib keladi. Stantsiya joylashgan hududda quyosh nurlanishi sodir bo'ladigan vaqtda havo isib ketadi. Bu esa o'z vaqtida issiqlik, namlik balansi, shamol yo'nalishi o'zgarishiga olib keladi; ayrim hollarda sistemani qizib ketishi va yonib ketishi ehtimoli bor va uning oqibatlari yomon bo'lishi mumkin. Quyosh energetik sistemalarda past qaynaydigan suyuqliklarini uzoq muddat ishlatilishida, bu suyuqliklar oqib chiqib ketishidan ichimlik suvlari ifloslanish ehtimoli bor. Ayniqsa tarkibida yuqori oksid modda bor bo'lib hisoblangan nitrit va xromatlar bo'lgan suyuqliklar xavflidir. Quyosh texnikasi atrof-muhitga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Uni rivojlantirish uchun mo'ljallangan hududlarda beton, shisha va po'lat ishlab chiqarish yirik majmualarini qurish zarur bo'ladi. Kremniyli, kadmiyli va arsenidagelli fotoelektrik elementlar tayyorlash vaqtida ishlab chiqarish xonalarida insonlar salomatligi uchun zararli kadmiyli va arsenidli chang birikmalar hosil bo'ladi.

Kosmik quyosh elektr stantsiyalari nurlanish hisobiga iqlimga o'z ta'sirini o'tkazadi, telealoqa va radioaloqalar uchun noso'zliklar, uning ta'siriga tushib qolgan himoyasiz tirik organizmlarga zarar yetkazadi. SHu munosabat bilan yerga energiya uzatish uchun ekologik toza to'lqinlar diapazonidan foydalanish zarur.

Quyosh energiyasining atrof-muhitga nohush ta'siri quyidagilarda o'z aksini topishi mumkin:

- yer maydonlari degradaniyasi;
- katta material sig'imida;
- tarkibida xlorat vanitriti bo'lgan ishchi suyuqliklarning oqib chiqib ketishida;
- sistemalarni qizib va yonib ketish xavfi, quyosh sistemalaridan qishloq xo'jaligida foydalanilganda toksik moddalar bilan mahsulotlarni zararlanishida;
- stantsiya joylashgan hudud issiqlik balansi, namlik, shamol yo'nalishi o'zgarishida;
- katta hududlardagi yorug'lik quyosh kontsentratorlari ta'siridan to'silib qoladi natijada yer unumdorligi yo'qoladi;
- kosmik QESlarini iqlimga ta'sirida;
- televizion va radioaloqalardagi noso'zliklarda;
- yerga energiyani mikroto'lqin nurlanishi vositasida yuborilishi tirik organizmlar va insoniyat uchun zararligida;

Ekologik holat arxitektor va quruvchilardan yangi fikrlashni talab qiladi.

An'anaga aylanayotgan zamonaviy energetika, energiya tashuvchilar turidan qat'iy nazar atrof-muhit ekologiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bino va shaharlarni energiya bilan ta'minlash sohasida yangi hosil bo'luvchi resurslardan tejamkor foydalanish imkonini beruvchi yechimlarni qabul qilish lozim. Asosan quyosh energiyasidan foydalanilgan. Nashr etilgan ma'lumotlar, xususan Internet ma'lumotlarini tahlili shuni ko'rsatadiki, butun jahonda energiyaga bo'lgan ehtiyoj yangi hosil bo'luvchi quvvat manbalarini 4-avlodidan foydalanishga turtki bo'lmoqda. Bunday usullar binolarni energiya bilan ta'minlashni tejamkor vositalari – quyosh qurilmalarini jihozlash va o'rnatishni kam sarf-xarajat qilib amalga oshirish imkonini beradi.

Ishlanmalar ichida ikkita yo'nalishni belgilash va hisobga olish lozim:

- mayda avtonom iste'molchilarni energiya bilan ta'minlashga mo'ljallangan chegaralangan quvvat darajali quyosh energoqurilmalarini ishlab chiqarish va qo'llash;
- shimoliy va cho'l hududlarida chegaralangan quvvatga ega bo'lgan quyoshli energetik stantsiyalar yaratish;

Dunyo bo'yicha 70dan ortiq mamlakatlarda gelioenergetik dasturlar ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan. Germaniyada "Mingta tom" loyihasi ishga tushirilgan, u yerda 2250ta uy fotogalvanik uskunalar bilan jihozlangan. AQSHda 2010 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan "Million quyoshli tom" dasturi qabul qilingan. Hozirgi kunda millionlab quyoshli suv isitkichlar ishlatilmoqda. "Quyoshli uylar" keng tarqalmoqda. Sistemalarni so'zlashni boshqarish usullari ishlab chiqarilgan.

Butun jahonda yangi hosil qiluvchi energiya manbalaridan foydalanish tejamkorligi tahlil kilinmoqda. Quyosh va shamol quvvatidan umumiy energetika sifatida foydalanishda dunyo bo'yicha yetakchi mamlakatlar: AKSH-17%, Frantsiya-15%, Daniya-50%, Xitoy-14%, Hindiston-22%, Lotin Amerikasi-35% gacha, Avstriya-25%, Germaniya, Isroil, Rossiya 2010 yilga kelib 10% ni tashkil etadi.

O'zbekistonda 1997 yilda "energiyadan ratsional foydalanish to'g'risidagi qonun" qabul qilindi. Bu qonunda alternativ energiya manbalaridan foydalanish uchun mo'ljallangan uskuna ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar orasidagi munosabatlar, hamda imtiyozlar belgilab berilgan.

"Kichik" energetikani amalga rivojlantirish maqsadida 2000 yilda O'zbekiston Respublikasi FA ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasi "Fizika-Quyosh", "Maxsus uskuna", OAJ "Texnolog" birgalikda mahalliy ishlanmalariga asoslangan issiq suv bilan ta'minlashga mo'ljallangan quyosh qurilmalarini konstruksiyalari, ishlab chiqarish, o'rnatish, ishlatish bo'yicha maxsus korxona – OAJ "Qurilishgelioservis" tashkil qilindi. "Qurilishgelioservis" OAJ ob'ektni tekshirish, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqarish, uskunalarini tayyorlash va jamlash, yig'ish va so'zlash, texnik nazorat hamda sistema foydalanishga topshirilgandan keyin xodimlarni bir yil davomida o'qitish vazifalarni bajaradi.

"Uztrans" aktsiyanerlik kompaniyasi buyurtmasi bo'yicha Samarqand viloyatining Oqariq posyolkasida geliomaydon yaratish bo'yicha loyiha hozirgi kunda amalga oshirilmoqda.

Bu aktsionerlik kompaniyasi tomonidan najotli dastur asosida uzoq muddatli hamkorlik doirasidan 1000 litrdan 3000 litrgacha issiq suv ishlab chiqarishga mo'ljallangan 8 ta quyosh qurilmasi o'rnatilgan. Gazli geliosistemalar bilan maktab, kasalxona, poliklinika va bolalar bog'chasi jihozlanishi rejalashtirilgan. Xuddi

shunday uzoq muddatga mo'ljallangan hamkorlik rejasi Davlat aksionerlik temir yo'llar kompaniyasi bilan amalga oshirilmoqda. Uning doirasida oltita loyiha ishlab chiqildi. Yaqinda Buzauboy poselkasidagi maktabda uskuna foydalanishga topshirildi.

“Qurilishgelioservis” korxonasi “sendvich” materialidan ishlangan devorli to'siqlarga o'rnatilgan avtonom geliosistemali mobilyuvish blok va dushxonalar variantlarini ishlab chiqdi va sinov tariqasida ular ishlab chiqargan nusxalar o'rnatildi.

O'zbekiston hududida quyosh sistemalarini qo'llash istiqbollari porloq. Aholini faqatgina issiq suv bilan ta'minlash uchun 3 mln.kv.m kollektorlar zarur. Qishloq vrachlik punktlariga 2000dan ortiq avtonom sistemalar kerak.

“Qurilishgelioservis” OAJ mutaxasislari tomonidan ishlab chiqilgan geliosistemalar konstruktsiyalari yangi ixtiro deb tan olingan, mualliflik huquqi bilan himoyalangan. SHaxsiy ishlanmalar asosida ishlab chiqarilgan geliotexnika obro'li xalqaro tashkilotlar va mutaxasislar tomonidan tan olingan va bu ixtiro yevropa mamlakatlari sistemalari bilan solishtirilishiga haqli.

Al'ternativ energota'minot qurilish usullaridan foydalanib binoni konstruktsiyalari yoki qayta qurish asosiy qoidalari:

- hudud iqlimi va qurilish olib boriladigan muayyan joy meteosharoiti, geleomaydoni quyosh nuri bilan yoritilganligi, shamol energiyasi qurilmalari mintaqasidagi shamol oqimlari harakatini hisobga olish zarur;

- energiya ta'minoti sharoitlari, binoni quyosh nurlarini qabul qilishining optimal variantlarini albatta hisobga olish kerak;

- keyinchalik al'ternativ energiya bilan ta'minlashdan foydalaniladigan turar joy binolarini qurish va qayta qurilishda energetik jihatdan tejamkor bino barpo etishga xarakat qilish kerak, kuchli issiqlik himoyasi va optimal xajmiy-tarxiy yechim hisobiga binoning issiqlik yo'qotishi eng kichik miqdorga keltirilishi zarur;

- turar joy muhitini yaratishda ekologik yondashuv ko'zda tutilishi zarur.

- quyosh energiya ta'minoti va shamol energiyasi uskunalaridan foydalanilgan passiv va faol sistemalarini o'rnatishni, O'zbekiston turar joy fondi ommaviy qayta qurish bilan uyg'unlikda olib borishi maqsadga muvofiqdir;

- quyosh va shamol uskunalaridan integrallangan foydalanish tavsiya qilinadi, elektr tarmog'iga elektrni generatsiyalovchi, ya'ni ortiqcha energiyani tashlab va yetishmaganini yig'ib oladigan qurilmani o'ylash lozim;

- seriyali ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kerak;

- al'ternativ sistema konstruktsiyalarini soddalashtirish orqali al'ternativ sistemalardan olingan energiya tannarxini pasaytirish erishish lozim;

- turli iqlim sharoitlarida ishlaydigan quyosh sistemalarini konstruktsiyalarida gelioqabulqiluvchilarni binoning turli konstruktsiyalarida joylashtirishni hisobga olish;

- maxsus choralarda qo'rilmaganda geliomanbalarning quyosh nurlanishiga uchragan yuzasi havo harorati bilan bir xil bo'lib qoladi, shuning uchun haroratni oshirish uchun yassi kollektorlar, selektiv qoplamali kollektorlar, quyosh energiyasi kontsentratorlari, akkumlyator batareyalari va boshqalar talab qilinadi;


- bugungi kunda binolar murakkab xolistatik sistemalar bo'lib hisoblanadi, yangi quyosh texnologiyasining estetik integratsiyasi, konstruktsiyalarida markaziy g'oya bo'lishi kerak.

Bularning barchasi issiqlik elektr bilan ta'minlash sistemasini, standartlarni, qoidalar va boshqa yangi mutaxassislar tayyorlashni qayta ko'rib chiqish, passiv (faol) quyosh isitish sistemalarini yangilash, O'zbekistonga xos me'moriy milliy uslublarni saqlagan holda binoga oson o'rnatiladigan yangi sistemalarni ishlab chiqarishni talab etadi. Quyosh energetikasi ideali- bu isitish sistemali uy emas, balki hozirgi isitish sistemasi umuman kerak bo'lmagan uy.

Morgan energiya sistemasi

Bino faqat quyosh energiyasi va ayrim kichik issiqlik manbalari (inson tanasi harorati, lampa) vositasida isitiladi. Quyosh kollektorlari va akkumulyatorlari mavjud emas, chunki issiqlik bino devorlari va shiftda to'planadi (2.8.-rasm).

Yorqin misol – Avliyo Georgiy va Vallasey maktabi (Liverpul, Angliya). Ikki qavatli bino 67m uzunlikka ega. Janubiy fasadning 90%ini oyna tashkil qiladi, oyna orqasidan qora rangga bo'yalgan beton devor joylashgan. Betonli shift va beton devorlari shunday o'lchamda qilinganki, ular iloji boricha ko'proq issiqlik yutib, keyin bu issiqlikni xonaga bera olishlari kerak. Qo'shimcha isitish mavjud emas, unga bo'lgan talab inson tana harorati, elektr yorug'lik vositasida qondiriladi. Binoning energetik avtonomligi 7 kun. Liverpul universiteti tomonidan o'tkazilgan sinovlar shuni ko'rsatadiki, bunday quyosh isitish sistemasi qoniqarli ishlaydi.



2.8 –rasm. Avliyo Georgiy maktabi, Vallasey (Angliya):

1 – nurlanish; 2 –akkumulyator beton devorlari (sirti qora); 3 – shisha panellar (500 m^2); 4 – yoritkichlar issiqligi; 5 – issiqlik akkumulyatorlari (beton pol); 6 – Odam tanasining issiqligi; 7 – laboratoriya xonasi; 8 – umumiy maydoni 1367 m^2 bo'lgan sinf xonalar;


Oynavand xajmning isitilishi va quyosh issiqligini unda to'planishi

Kun davomida issiqlikni bir tekislikda bo'lmasligi, uyni kechasi va bulutli havoda ham isitish hohishi issiqlik akkumulyatori bo'lishi kerakligi zaruriyatini tug'diradi. (2.9-rasm). Akkumulyator kun davomida issiqlik energiyasini to'playdi va kechasi uni tarqatadi. Havo kollektori bilan ishlash uchun shag'alli – toshli akkumulyatorlari to'g'ri keladi. Uyning issiqlikdan himoyalangan chuqurlashtirilgan tsokol qismiga shag'alni joylashtirish mumkin. Maydoni 60 m^2 bo'lgan xona uchun akkumulyator xajmi 3 m^3 dan 6 m^3 gacha bo'ladi va geliosistema, issiqdan himoya elementlari bajarilishi sifati bilan belgilanadi, hamda muayyan joy quyosh nurlanishi tartibiga bog'liq bo'ladi. Ochiq havoli iliq kunlarda issiq havo kollektorining yuqori

qismidan olinadi va ventilyator (yoki tabiiy tortqich) yordamida shag'al orqali issiqlik akkumulyatorini zaryadlab haydaladi. Tunggi isitish va bulutli ob-havoda akkumulyatorlardagi havo xonalarga isitilib ko'tariladi. Bu sistemaning salbiy tomoni isitilgan qopqoqni kechasi va bulutli ob-havoda yopish zaruriyati tug'iladi, buning uchun qo'shimcha mexanizm va uskunalar sistemasidan foydalanish zaruriyati tug'iladi, bu esa qurilishni qimmatlashishiga olib keladi.

Faol sistemalarning eng soddalari ham texnik vositalarni nisbatan ko'p qismini o'z ichiga oladi (yassi suvli va havo kollektorlari, issiqlikning maxsus akkumulyatorlari, issiqlikni taqsimlash sistemalari va issiqlik tarqalishini nazorat qilish sistemalari), bu qurilish ishlari qimmatlashishiga olib keladi, malakali o'rnatish mexanizmini va

foydalanish jarayonida alohida parvarishni talab qiladi.



2.10-rasm Aralash geliosistemali ikki xonali uy (Frantsiya):

a – umumiy ko'rinish; b – blok xonadan ikkinchi sathi tarhi; 1...3 – yotoqxonalar; v – blok xonadan birinchi sathi tarhi; 4 – oshxona; 5 – garaj; 6 – umumiy xona; g – umumiy xona qirgimi; d – garaj qirgimi; 7 – akkumulyator; 8 – gelioqabulqilgich.

Ko'pgina mualliflarning tanqidiy fikrlariga qaramay, quyosh energiyasining ko'p qavatli fuqaro binolarida ishlatilishi maqsadga muvofiqligi Janubiy Germaniyadagi "Energon" binosi misolida isbotlandi. 420 xizmatchiga mo'ljallangan bu ma'muriy binoda quyosh nuridan qishda isitish uchun, yozda esa sovitish uchun foydalaniladi. Xonalarni isitish va sovitish avtomatlashtirilgan.

Tarhda bino uchburchak shaklini eslatadi, fasadi esa quyosh nuri ko'proq tushishi uchun devor maydonini kattalashtirish maqsadida ataylab qiyshaytirilgan. Binoning janubiy – sharq va janubiy – g'arbga qaragan fasadlarida katta deraza o'rinlari ko'zda tutilgan. Bino tomi ham maxsus shishadan yasalgan, quyosh nurini va yorug'likni bemalol o'tkaza oladi.

Xonalarni issitish uchun passiv variantda ayrim konstruksiyalarni (devor, pol va h.k.) quyosh nurlari bilan jadal isitish ko'zda tutiladi. Bunda quyosh nuri tushadigan pol maydonini iloji boricha kattalashtirish maqsadga muvofiqdir. SHuning uchun turar joy xonalarini me'moriy rejalashda binoning janubiy tomonga ko'proq

yorug'lik va issiqlik talab qilinadigan xonalar joylashtirish ko'zda tutiladi (yosh bolalar xonalari, yotoqxonalar va h.k.). tarhiy yechimlarni kottedjlarda osongina amalga oshirish mumkin, ko'p qavatli turar joy binolarida esa murakkabroq, chunki bu holda xonadonni ikki tomonlama (shimol – janub) yo'nalishini va yelvizak usulida shamollatishni ta'minlash zarur.

To'g'ridan – to'g'ri quyosh nurini tushishini ko'paytirish uchun janubiy fasadga erkerlar o'rnatiladi va binoning asosiy qismidagi janubga qaragan derazalar, quyosh fanarlari, mansard va eshik oynalari xajmi kattalashtiriladi. Boshqa yo'nalishdagi oynalar esa issiqlik yo'qotilishini kamaytirish maqsadida kichraytiriladi. Bino ichiga shisha orqali qisqa to'lqinli yorug'lik nurlanishi

quyosh nurlarini qabul qiluvchi osongina kiradi. Konstruktsiyani ichki yuzasi isiydi va uzun to'lqinli issiqlik nurlanishini tarqatadi, bu nurlanishni shisha orqali o'tishi qiyin.

Yoz paytida janubga qaragan derazalarni quyosh holatiga qarab so'zlanadigan to'siqlar bilan himoya qilish zarur.

Quyosh nuridan isiydigan devor va pol konstruktsiyalarini yasashda jadal absorblanadigan va issiqlikni saqlaydigan qurilish materiallaridan foydalaniladi. Ikki qavatli, g'isht va absorblanadigan material bilan qoplangan shishadan ishlangan devor o'rnatish ehtimoli bor. Ular orasida 2-15smli oraliq qoldirish mo'ljallanadi va shu oraliqda iliq havo aylanadi.

Binolardagi issiqlikning ko'p qismi yorug'lik darcha(proem)lari (30-40%) orqali yo'qotiladi. Derazalarning issiqlik himoyasini oynalar sonini ko'paytirib, issiqlik qaytaruvchi maxsus shishalar, to'rpardalar, ekranlar, jalyuzalar va boshqalar orqali oshirish mumkin. Boshqa tomondan, yorug'lik darchalaridan xonalarni isitishda quyosh nuri tushishi uchun foydalanish mumkin.

Derazalarning samaradorligini oshirish uchun shishalar orasidagi fazoni shamollatish vositasida amalga oshirish mumkin. Bunda shamollatiladigan havo harorati oshadi, bu xona issiqlik vaziyati qulayligini oshiradi, xonaga quyosh radiatsiyasidan kiradigan issiqligini kamaytiradi.

Quyoshdan keluvchi issiqlikni iqtisod qilish bilan birga, transmission issiqlikni 30%gacha tejash mumkin, bu issiqlik asosan oynalar orqali ko'ndalang – bo'ylama shamollatish amalga oshirilganda tashqi to'siqlar tomonidan yo'qotiladi.

Issiqlik samaradorligidan tashqari xonaning yuqori qismiga toza isitilgan havo kirishi va inson uchun zarur bo'lgan yangi salbiy zaryadlangan ionlarni saqlanib turishiga va gigienik samaraga ham erishiladi.

Hamma me'yoriy talablarga rioya qilib quyosh nuridan passiv foydalanganda, fuqoro binolarida insonlar hayot faoliyati uchun qulay sharoitlar yaratish va saqlash mumkin.

2.3.Quyosh energiyasini tutish va qayta ishlash uchun faol geliosistemalarning maxsus asboblardan foydalaniladi. Quyosh nurini elektr energiyasiga aylantirish uchun maxsus quyosh batareyalari va boshqa fitoelektrik asboblari qo'llaniladi. Quyosh energiyasini issiqlik energiyasiga aylantirish uchun maxsus uskunalari – kollektorlardan, xonalarga taqsimlash uchun esa – gazsimon (havo) yoki suyuq (suv, yog', antifriz) issiqlik tashuvchilardan foydalaniladi. Kollektor turiga qarab issiqlik bilan ta'minlash past va yuqori haroratli bo'ladi. Past haroratli sistemalardagi yassi

kollektorlarda xuddi passiv geliosistemalardagidek parnikli effekt qo'llaniladi. Yuqori haroratli sistemalarda fokuslovchi kollektorlar yoki issiqlik nasosi turidagi maxsus jihozlar va sovutish hamda isitishning odatiy sistemalari qo'llaniladi. Yuqori haroratli geliosistemalar jihozlari qimmat va foydalanish uchun murakkab sanaladi (2.10-rasm).

Faol geliosistemalar yordamida binoni isitish, sovutish va issiq suv bilan ta'minlashni tashkil qilish mumkin.

Quyoshli faol isitish sistemasi tarkibiga 5ta asosiy komponent kiradi: va issiqlik energiyasiga aylantiruvchi – kollektorlar (1); issiqlik akkumulyatorlari (2); qo'shimcha isitgich (3); taqsimlovchi tarmoq va isitish asbobi (4); so'zlovchi moslama (5).


Birinchi tur – yassi kollektorli geliosistemalar (2.10 – rasm). Yassi kollektorning xizmati materiallarini quyosh nurini yutish, qayta ishlash va saqlab turishga asoslangan. Material turi va uning yuzasi holatiga qarab yutish qobiliyati 0.80.... 0.98 ga yetishi mumkin, bu miqdor tushayotgan yorug'lik oqimi energiyasiga nisbatan olinadi (nurning qolgan qismi material tomonidan qaytariladi). Yutilgan quyosh energiyasi issiqlik energiyasiga aylantiriladi, uning bir qismi material ichkarisiga, qolgan qismi atrof – muhitga nurlanish va konvektsiya vositasida chiqib ketadi. CHiqib ketayotgan issiqlik miqdori yuza harorati va atrof – muhit haroratlari farqiga to'g'ri proporsional bo'ladi. Agar nurlantirayotgan yuzani shisha bilan yopib, 20...30mm havo tirqishi qoldirilsa, issiqlik yo'qotish ancha pasayadi, bunda yutilgan issiqlik miqdorining kamayishi deyarli sezilmaydi. SHisha yuqori haroratli qisqa to'lqinli quyosh nurlanishini yaxshi o'tkazadi, issiqlik qabul qiluvchi uzun to'lqinli infraqizil nurlanishni o'tkazmaydi. SHu bilan birga shisha konvektsiya hisobiga issiqlik yo'qotilishini keskin kamaytiradi.

Issiqlik qabul qiluvchi material bilan muloqot qiluvchi biron – bir issiqlik tashuvchi (suv, havo)ni tsirkulyatsiyasini tashkil qilib, bu issiqlik tashuvchini qizdirish mumkin va uning yordamida olingan issiqlikni isitilishi zarur bo'lgan xonalarga quvurlar orqali yetkazib beriladi.

Issiqlik qabul qiluvchi element sifatida quvurli metall plastinalari yoki qora rangga bo'yalgan va issiqlikdan himoyalangan panelga joylashtirilgan oddiy quvurlar ishlatilishi mumkin. Panelni quyoshga qaragan tomonini shisha yoki yorug' shaffof material bilan to'siladi. Quvurlardan issiqlik tashuvchi o'tkaziladi.

Issiqlik yo'qotilishiga xalaqit beruvchi va quyosh nurlarini yutish ulushini oshiruvchi issiqlik qabul qilish yuzali maxsus qoplamalari bo'yicha takliflar mavjud.

Kollektorlar tejamkor ishlashi ularni o'rnatish joyi, maydoni, optimal yo'nalishi va nishabi, soya tushmasligi, quyosh energiyasini iloji boricha ko'proq tutib qolishiga bog'liq.



2.13.-rasm. Suv isitish uchun

yassi issiqlik qabul qilgichlar:

a-shtamplangan qobiqdagi quvurlar; b-ikki qavatli qovirg'ali list; v-quvurchalar ustidan qoplangan qovirg'ali list; g-ikkita to'lqinli list; d-shtaplangan va yassi listlar; ye-kollektorga ulangan quvurchalar; j-pastki shtamplangan (yuqori-yassi) list; z- butilkauchukdan tayyorlangan kollektor; i-val'itslangan panel.

Kollektorlar uy ustida yoki uydan alohida joylashtirilishi mumkin, bino konstruktsiyasining bir qismi bo'lishi mumkin (devor, tomyopma, ekran, quyoshdan himoya asboblari) (2.10 – 2.15 rasm)

Kollektor maydoni geliosistema ishlash sharoiti yoki uning minimal bahosi va bino issiqlikka bo'lgan talabini qondirishda quyosh energiyasi ulushiga qarab aniqlanadi.


A.A.Seidov tadqiqotlariga qo'ra, bino iste'mol qilayotgan issiqlikdagi ulushining optimal nisbati (40...70%)ni tashkil qiladi, binoning issiqlikka bo'lgan talabi geliota'minlanganlik koeffitsienti $K_{gp}=0,...0,65$ ga teng (geliota'minlanganlik koeffitsienti – gelioqabul qilgich yuzasining binoni isitiladigan yuzasiga nisbatiga aytiladi). Koeffitsientning bu qiymati kam qavatli binolarga tegishli. To'rt qavatli binolar uchun $K_{gp}=0,38...0,5$, to'qqiz qavatli binolar uchun – $K_{gp}=0,38...0,46$.

Faol geliosistemalar va kollektorlar sxemalari 2.11-2.19 rasmlarda keltirilgan.

Nisbatan sifatli kollektorlar mis quvur va mis varaqasidan yasalgan issiqlik yutuvchi panellarga ega, panel va quvurlarni ulash usuli – payvandlash. Qoplamasi – selektiv. Oyna do'lga bardoshli, tarkibidagi temir miqdori – 0.03%, qalinligi 3.2mmli bo'ladi. Sinchi anodlangan alyuminiy yoki kukunsimon poliestar bilan qoplangan ruxlangan po'latdan yasaladi. Issiqlik himoya materiali sifatida penopoliuretan, shishapaxtadan foydalaniladi.

O'rta sifatli kollektorlar mis quvur va po'lat varaqasidan yasalgan issiqlik yutuvchi panelga ega. Ulanish usuli – ularni qisish orqali amalga oshiriladi. Qoplamasi selektiv. SHisha do'lga bardoshli, tarkibida temir moddasi miqdori past, qalinligi 3.2mm. korpusi ruxlangan po'latdan yasaladi. Issiqlik himoya materiali sifatida penopoliuretandan foydalaniladi.

Sifatli standart kollektorlari po'lat quvur va po'latsimon varaqadan yasalgan issiqlik yutuvchi panelga ega. Ulanish usuli – qisish vositasida. Qoplamasi – selektiv



emal. SHisha derazaga o'rnatiladigan turi, qalinligi 3mm. Korpusi ruxlangan po'latdan.

Issiqdan himoya – penopoliuretan.

b) ishlab chiqilayotgan quyoshli kollektorlar yangi turi – polimerli quyoshli kollektor (QK-P)

kolikarbonatdantayyorlangan ko'p qatlamli panel

asosida: 1-panelning yuqori qatlami – shaffof

izolyatsiya; 2 – o'rta qatlam – absorber QK; 3 –

pastki qatlam – issiqdan himoya; 4- absorber

kanallari; 5,6 – quyoshli kollektorlarning

